

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
T A' L I M V A Z I R L I G I**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası

Saydaliyev Nu'mon

Insho yozishda o'quvchilar fikrlash qobiliyatini faollashtirish

5141600 - Boshlang'ich ta'lim, tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: o'qit. M.Hazratqulov

Malakaviy bitiruv ishi Boshlang'ich ta'limmetodikasi kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2014-yil 29-maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga
tavsiya etildi
(bayonnoma № 10).

Kafedra mudiri: dots.Shodiyev F.

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2014-yil____iyundagi majlisida
himoya qilindi va _____ foizga baholandi (bayonnoma № ____).

YaDAK raisi:_____

A'zolari: _____

Samarqand – 2014

REJA:

I. KIRISH.

II. ASOSIY QISM:

I.BOB.INSHO YOZISH MALAKASI VA UNI SHAKLLANTIRISH USULLARI.

1.1. Insho yozishda xatolarning kelib chiqish sabablari va xatolar ustida ishlash.

1.2.Insho mavzusi va uni yoritish uslubiyati.

1.3. Yozma va og'zaki insho turlari

II.BOB.O'QUVCHILARNING FIKRLASH QOBILIYATINI FAOLLASHTIRISHDA IJODIY ISHLARNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI

2.1.Boshlang'ich sinflarda ijodiy ishlarni tashkil etish orqali o'quvchilar fikrlash qobiliyatini faollashtirish

2.2.Boshlang'ich sinf ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish vositalari

2.3.Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini faollashtirishga mo'ljallangan topshiriq turlari

III. XULOSA.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

I.KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq ona tili o'qitishga katta ahamiyat berila boshlandi. Bunda 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan «O'zbek tiliga davlat maqomi berilishi» fikrimiz isbotidir. Ta'lim sohasidagi bu o'zgarishlar ona tili o'qitish metodikasida ham bir qator imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Bu yangiliklardan ko'plari ommaviy maktablarda amalga oshirilmoqda, ba'zilari hozircha sinovdan o'tkazilmoqda. Sinov davrida, birinchidan, o'quvchiga, uning darsdagi va darsdan tashqari vaqtdagi o'quv mehnatiga, u duch kelayotgan qiyinchiliklarga, uning ko'nikma, faoliyat, malakalarini va rishojlanish qonuniyatlarini o'rganish metodikasiga ko'proq ahamiyat berilmoqda o'qituvchi mehnati haqidagi fanga o'qituvchi va o'quvchi mehnati haqidagi fanga aylantirilmoqda. Ikkinchidan, ta'lim jarayonida bolaning fikrlash qobiliyatini o'stirish, mustaqilligini va o'quv ishlari jarayonidagi aqliy faolligini oshirish vazifalari hal qilinmoqda. Uchinchidan, mavjud ta'lim tizimidagi tekshirishlar bilan bir qatorda o'qitishning istiqboli haqidagi vazifalarni hal qilish maqsadida ham tekshirishlar olib borilmoqda. Shunday qilib, fan sifatida ona tili o'qitish metodikasining o'z predmeti, vazifasi, nazariy va ilmiy sohasi bo'lib, bir qator fanlar o'rtasida uning ma'lum o'rne bor. Bu fan ham boshqa fanlar kabi rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda.

Til fikrni shakllantirish va insho qilish, taassurot, his, kechinmalarni ifodalashda muhim o'rin tutadi. Til jamiyat a'zolarining bir-biri bilan o'zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan vositadir. Bu vosita qanchalik takomillashsa, fikr shunchalkk aniq, ta'sirchan ifodalanadi. Maktabda ona tilini chuqur o'rganish zarurati tilning mana shu asosiy vazifalaridan kelab chiqadi.

Savod o'rgatish darslari o'qish samaradorligini ijobiy tomonga ta'sir qilishning eng qulay usulidir. Sinfda va sinfdan tashqari o'qish darslari boshlang'ich sinflarda o'tiladigan barcha predmet dasturlarining bo'limlari bilan bevosita bog'liq. O'qish darslarida o'tilgan mavzular asosida badiiy kitoblar

axtarish, asar qahramonlarining nomlarini yozish, ularni tasvirlab berish, ijodiy rasm ishlash, fikrni yakunlash uchun mos maqollar yod olish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb metodik manba ekanligini aniqlash, ularning didaktik asosini belgilash ham mashg'ulotning predmeti hisoblanadi.

Insho - ijodiy ish: o'quvchidan faollik, qiziqish, fikr bildirishni talab qiladi. Material tayyorlash, uni tartibga solish, insho kompozitsiyasi va rejasi haqida o'ylash, logik bog'lanishni belgilash, so'z, so'z birikmasini tanlash, gap tuzish va uni o'zaro bog'lash, imloni tekshirish kabi barcha murakkab ishlar o'quvchidan aqliy kuchini to'la ishga solish bilan birga, o'z ma'naviy faoliyatini boshqarish ko'nikmasini ham talab etadi.

Inshoda til nazariyasi nutq tajribasi bilan qo'shiladi. O'quvchi inshoni, u mustaqil, ijodiy xarakterda bo'lgani, «o'ziniki»ni yozgani uchun ham sevadi.

Maktab rivojining barcha bosqichlarida bolalarning mustaqil tuzgan hikoyasi - inshoga alohida ahamiyat berilgan. Maktablar yangi, o'quvchilar nutqini o'stirish, aqliy, ijodiy o'sishiga mo'ljallangan dasturga o'tishi munosabati bilan uning ahamiyati yanada o'sdi.

Og'zaki va yozma inshoga o'rgatish jarayonida o'quvchilarda mavzuni tushunish va yoritish, o'z inshoini aniq fikrga bo'ysundirish, material to'plash, uni tartibga solish va joylashtirish, reja tuzish va reja asosida yozish, mazmunga va nutq vaziyatiga mos ravishda til vositalaridan foydalanish, yozgan inshosini takomillashtirish ko'nikmalari hosil qilinadi. Bulardan tashqari, «texnik» vazifalar ham amalga oshiriladi, ya'ni matnni yozishda imloviy va husnixatga doir matnni abzaslarga bo'lish, xat boshidan yozish, hoshiyaga rioya qilish kabi talablarga ham amal qilinadi.

Og'zaki va yozma insho material manbaiga, mustaqillik darajasiga, tayyorlash usuli, janri va til xususiyatiga qarab tasnif qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi. Savod o'rgatish mashg'ulotlarida va unga ma'lum bir o'zgartirishlar kiritishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali usullarini shakllantirish, insho yozish orqali o'quvchilarning aqliy va

ijodiy faolligini oshirishbitiruv malakaviy ishi mavzusi bo'yicha olib borayotgan tadqiqot ishimizning maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifasi: Yuqorida oldimizga qo'ygan maqasadimizdan kelib chiqib:

1. Bitiruv malakaviy ishida tanlangan mavzu bo'yicha ijtimoiy-pedagogik, falsafiy-ma'rifiy, ilmiy-metodik hamda o'quv adabiyotlarni o'rganib chiqish va umumlashtirish.

2. Savod o'rgatish mashg'ulotlari o'qish darslariga oid mashg'ulotlari bilan ishlash jarayonini o'rganish va tahlil qilish.

3. Mavzuga oid ilmiy metodik manbalarni o'rganish va tahlil qilish asosida Savod o'rgatish mashg'ulotlarini shakllantirishga oid mashg'ulot mazmuni, maqsadi va qurilishini o'rganish hamda qayta takomillashtirish dolzarb nuammo ekanligini aniqlash.

4. Savod o'rgatish darslari o'qish mashg'ulotlariga oid mashg'ulotlarning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars ishlanmalarini yaratish.

Tadqiqotning metodologik asoslari. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari va ma'ruzalarida insho qilingan ta'limni isloh qilish, boshlang'ich ta'limni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar, qarashlar, ta'lim jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, ilmiy-metodik manbalar.

Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati. Ushbu Bitiruv malakaviy ishini bajarish natijasida boshlang'ich sinflarda Savod o'rgatish darslari kichik yoshdagi o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni ahloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qoraladi. Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi kichik yoshdagi o'quvchilarni bolalar adabiyoti va xalq o'gzaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda

kitobxonlik madaniyatini tiklashga oid mashgʻulot ishlanmalarini, uning maqsadi, mazmuni, tipi, qurilishiga oid yangi tushunchalari bilan boyitishning didaktik asoslari koʻrib chiqildi hamda ilmiy-metodik tavsiyalar bilan boyitish nazarda tutildi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida aniqlangan ilmiy yondashuvlar, ishlab chiqilgan tavsiyalardan nutqning tovush madaniyatini shakllantirishga oid mashgʻulotlarini boyitish, maktabgacha taʼlim muassasalarida olib boriladigan turli oʻquv pretmetlarini takomillashtirish hamda ularning bilimini, malakasini oshirishda keng foydalaniladi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Ushbu Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, har bir bobda uchtdan qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat.

1.bob.Insho yozish malakasi va uni shakllantirish usullari.

Boshlang'ich sinf ona tili darslariga qo'yilgan muhim talablardan biri o'quvchilar bilimini shakllantirish borasida ularning qobiliyatlarini o'stirish ustida ishlash bilimlarni ongli bo'lishiga erishish, o'quvchilarga har bir ishni o'ylab bajarishga odatlantirishdir.

Maktabda amaliy ishlarning ahamiyati o'quvchilar tomonidan to'g'ri baholansa-da, o'quvchilarning nazariy bilimlaridan amalda foydalanishga qiynaladilar. Yozma ishlarni bajarishda grammatika qoidalaridan kam foydalanadilar. Aslida esa imlo savodxonlikni oshirish uchun ko'chirib yozish va amaliy mashqlar muhim o'rin tutadi.

Psixologik tadqiqodlardan ma'lum bo'lishicha, imlo savodxonlik asta-sekinlik bilan shakllanadi. Amaliy ishlardan qoidaga o'tishda ham o'zlashtirish jarayoni sekinlik bilan kechadi. Dastlab o'qituvchi rahbarligida og'zaki muhokama qilinadi. Asta-sekin o'quvchilar o'ylab, mulohaza qilib anglay boshlaydilar. Barcha yozuv darslarida o'quvchilarga to'g'ri yozish qoidalarini ta'kidlab turish va amaliy ishlarni bajarish orqali ularning imlo savodxonliklarini oshirish mumkin.

Barcha ona tili darslarida o'quvchilar bilishini va malaka qobiliyatlarini takomillashtirish maqsadida oldin o'tilgan darslarni takrorlashga vaqt ajratiladi. Takrorlash bilimlarni aniqlashga, hisobga olish va shu bilan bir vaqtda mustahkamlashga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda oldin o'tilganlarni takrorlash bilan bir vaqtda va takrorlash jarayonida oz-ozdan yangi bilimlar berib boriladi. Takrorlash orqali o'quvchilar o'z bilimlarini tartibga soladilar, mustahkamlaydilar.

Ilg'or tajribali o'qituvchilar darslarni tashkil etishda oldin o'tilganlarni mustahkamlash, yangi bilimlarni o'zlashtirish bilan bir vaqtda keyingi darsda o'rganiladigan mavzu uchun zamin tayyorlaydilar.

Hozirgi zamon darsi shundan iboratki, o'quvchi, tinglovchi, o'qituvchi esa ma'ruzachi bo'lib qolmasligi kerak. Balki o'qituvchi darsni kuzatib tartibga soluvchi rejissorga aylanmog'i lozim. O'qituvchi darsni shunday tashkil etishi kerakki hamma o'quvchi shu mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritsin, o'z fikrini

ayta olsin, kamchiligi bo'lsa o'rtoqlari va o'qituvchi javobidan kelib chiqib to'g'rilay olsin. Darsning xarakter xususiyatiga qarab dars interfaol usulda bo'lishiga erishishi lozim. Darslarda testlardan va tarqatmali materiallardan foydalanish ham yahshi natija beradi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf ona tili darsligining adabiy til meyorida amaliy o'zlashtirishlarga yordam berishdir. Darslikning asosiy qismini xilma-xil mashqlar tashkil etadi.

Masalan:K.Qosimova, S.Fuzailov va A.Ne'matova muallifligidagi 2-sinf ona tili darsligi 1-sinfda o'tilganlarni takrorlashdan boshlanadi. Bunda gap va so'z haqidagi bilimlar takrorlanib mustahkamlanadi. Va asta sekin navbatdagi bilimlar berib boriladi. 2004-yilda to'ldirilgan nashrning muqovasida ikkita o'quvchining maktab tomon ketayotgan rasmi berilgan. Bu rasm o'quvchilarning shu darslikka qiziqishini oshiradi. Mashqlarda uyga vazifa va o'ylab ko'rish uchun berilgan mashqlarga alohida belgi qo'yilgani juda ma'qul. Ayniqsa kitobning sahifalari did bilan jihozlangan. Berilgan rasmlar aniq, chiroyli qilib chizilgan. Qoidalar aniq, tushunarli qilib chiziqlar ichida berilgan. Darslik ohirida lug'at berilgan bo'lib jarangli va jarrangsiz undoshlar aniq ajratib ko'rsatilgan. Darslik foydalanishga loyiq.

S.Fuzailov va M.Xudayberganovalar tomonidan 2004-yilda nashr etilgan 7-nashri ham 3-sinf o'quvchilari uchun juda mos tayyorlangan. Muqovadagi tanlangan rasmlar va bobomiz A.Navoiyning yodgorliklari va o'gitlari juda o'rinli berilgan. Darslik sahifalari ham sifatli qog'oz va ranglar asosida yaratilgan. Darslikning 3- sahifasida Mustaqillik maydoni rasmini berilishi o'quvchilarni o'z vataniga, xalqiga, prezidentiga sadoqat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, darslik sahifalariga ishlangan rasmlar ham juda o'rinli, aniq qilib berilgan. Qoidalar ham chiziqlar ichida alohida rang bilan berilgan. Bu ham o'quvchilarni ona tilidan grammatik qoidalarni tez va puxta o'zlashtirib olishlarida alohida ahamiyat kasb etadi.

2.1.Insho yozishda xatolarning kelib chiqish sababalari va xatolar ustida ishlash.

Ma'lumki yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi” ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan barcha-barchaga katta vazifalar yukladi. Jumladan yoshlarni har tomonlama bilimli, yetuk, komil inson bo'lib yetishishlari uchun avvalo ularni savodli o'qish va yozishga o'rgatish zarur. Bu vazifa avvalo ona-tili darslarida amalga oshiriladi. Yangi tahrirdagi DTS lari asosida o'quvchilarga puxta bilim berish uchun 1-2-sinflarda haftasiga 4 soatdan, 3-4-sinflarda esa haftasiga 5 soatdan vaqt ajratilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona-tilidan bilim va malakalarni hosil qilish ishlari asosan yozuv darslarida amalga oshiriladi. Yozuv darslarining mazmuni boshlang'ich sinf ona-tili dasturini va maktab oldiga qo'yilgan talablar asosida belgilanadi.

Yozuv darslarini tashkil etishda pedagogika va metodika tavsiyalari hisobga olinadi. Yozuv darsi va unga qo'yilgan talablarni belgilashda metodika fani sohasidagi yangiliklar, boshlang'ich sinflarda ishlayotgan eng tajribali o'qituvchilarning tajribalari asos qilib olinadi. Shunga alohida e'tibor berish kerakki har bir darsda o'quvchilarga bilim berish jarayonida tarbiyaviy tomonlarga ham alohida ahamiyat berib borish, uzaro hurmat, mas'uliyatni his etish, tengdoshlari va oila azolariga hurmat, g'amxo'rlik, tabiatga mehr-muhabbat singari xislatlarni singdirib borish kerak.

O'quv tarbiya ishlarida ko'zlangan maqsadga yetishish uchun o'quvchilarda quyidagi qobiliyatlarni shakllantirib borish zarur:

- 1) Gapdagi so'zlarni o'xshash tomonlariga ko'ra taqqoslab olish.
- 2) So'zlar nimani ifoda etishiga ko'ra turkumlarga ajratish.
- 3) O'qituvchi tavsiya qilgan yoki o'zi tuzgan reja asosida fikrlarni bayon qila olish.
- 4) Gaplarda grammatik tushunchalarni, orfografik qoidalarni ifodalay olish.

5) Darslikdagi turli mashqlar va topshiriqlarni birgalikda muhokama qilinganidan keyin uni bajara olsh.

Ona tili darslari savodli yozuv darsi hisoblanadi. Shuning uchun ham yozma ishlarga alohida e'tibor beriladi. Darsning uchdan ikki qismida o'quvchilar grammatik, orfografik va nutqiy yozma ishlarni bajaradilar.

Shuning uchun grammatik, orfografik bilimlarni o'zlashtirish uchun qunt bilan ishlashga to'g'ri keladi. Kuzatshlardan ma'lumki, darsda o'quvchilarning osoyishta va mustaqil ishlarini ta'minlagan o'qituvchi ularning savodli bo'lishga erisha oladi.


Bunday darslarda ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan foydalanish o'z o'rnida bo'ladi. O'quvchilarning dars jarayonida yo'l qo'ygan xatolarini sekin yotig'i bilan tushuntirish lozim. O'quvchi shundagina yozuvida yo'l qo'ygan xatosini tushunib oladi va tuzatishga harakat qiladi, bilimlarni o'zlashtirishga qiziqishlari ortib boradi. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarini bajargan ishlarini o'z vaqtida baholab borish ham katta ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf ona-tili darsliklaridagi manbalar oz bo'lsada izlanish metodi bilan ishlashni taqozo etadi O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida mashq shartini o'qib unda talab etgan topshiriqlarni aniqlaydilar savollarga javob qidiradilar undagi fikrlarni umumlashtiradilar, mashqlar bajaradilar. Umumlashtirish va xulosalar asosida qoidalar ishlab chiqadilar.

Umuman ona-tili darslarini to'g'ri va qiziqarli tashkil etilishi o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini ortiradi.


Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozuvlarida turli xatolar uchraydi. Bu uchraydigan xatolarni quyidagi turlarga ajratish mumkin.

1. Grafik xatolar. Grafik xatolarga harf shakllarini o'xshata olmaslik, harflarning o'rnini almashtirib yozish, talaffuzi o'xshash undoshlarni aniq ajratmaslik natijasida yozuvda bir harf o'rniga ikkinchisini ishlatish biror harfni tushirib qoldirish kabi xatolar uchraydi. Shularga ko'ra grafik xatolar quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:




1. *Alisher odobli bola.*
2. *Kuz fasli boshlandi*
3. *Qobil ikki tup ko'chat ekdi*
4. *Olma, o'rmon, to'qmoq.*

1. Fonetik xatolar. Bunday xatolar so'zlarni tog'ri talaffuz qila bilmaslik, sheva va dialektlar ta'sirida bo'ladi. Fonetik xatolar asosan quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi.



- Masalan: 1. Borgan edi – boruvdi. (sheva xatolari)
2. Tomni – tommi. Piyolaga – piylaga. (Assimilatsiya hodisasi)
3. Go'sht – gosh. G'isht – g'ish
5. Devor – devol. (tovushlar almashuvi)



Xatolar ustida ishlashda orfografik tahlilni ahamiyati katta bir necha gapni orfografik jihatdan to'la tahlil qilish kerak. Bu bilan o'quvchilar so'z ma'nosi va uning imlosini puxta o'zlashtirib oladilar. O'quvchilarning to'g'ri, xatosiz yozishga o'rgatish va yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf etish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Eng avvalo o'quvchilarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish. Ya'ni so'z aytilganda tovushlarni aralashtirmay, tovush tushirib yoki orttirib talaffuz etmaslik. Masalan: kitob o'rniga kitob, ruchka o'rniga yuchka, maktab o'rniga matab deyishga yo'l qo'ymaslik.

2. Har bir darsda ko'pchilik uchun bir xil uchraydigan tipik xatolar doskada ko'rsatilib, tuzatiladi.

3. Ayrim o'quvchilar uchun tegishli xatolar o'sha o'quvchi bilan birgalikda tuzatiladi.

4. Agar o'quvchilar biror qoidani bilmasligi natijasida xatoga yo'l qo'ygan anashu qoidani takrorlash bilan tushuntirish kerak bo'ladi.

Shuni aytish mumkinki, o'quvchilar yozuvida xatolar bo'lmasligi uchun lug'at ishiga ta'limiy harakterdagi yozma ishlarga ko'proq o'rin berish zarur. Imlosi qoidalashtirilmagan va qiyin so'zlar jadvali tuzilib, sinf xonasiga o'quvchilarga ko'rinarli qilib osib qo'yilishi va uni vaqti-vaqti bilan almashtirib turishsa yaxshi natija beradi.

2.bob. Insho mavzusi va uni yoritish uslubi.

2.1.Og'zaki va yozma insho turlari.

Insho ijodiy ishning eng yuqori shakli bo'lib, maktabda alohida o'rin tutadi; barcha nutqqa oid mashqlar ma'lum mazmunda inshoga bo'ysunadi.

Insho 1-sinfda kichik og'zaki axborot va emotsional hikoyadan boshlanib, o'z fikrini ifodalashga, o'quvchi shaxsining tashkil topishiga xizmat qiladigan, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jiddiy rejali aqliy ishga aylanadi.

Insho shaxsni shakllantirishda foydali vosita bo'lib, his-hayajon uyg'otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko'rgan-kechirganlari va o'zlashtirganlarini baholashga o'rgatadi; kuzatuvchanlikni o'stiradi, voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishni topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Insho fikrni tartibga soladi, o'quvchilarda o'ziga, o'z kuchi va imkoniyatiga ishonch tug'diradi.

“Insho” asli arabcha so'z bo'lib, ma'nosi *“yaratish”, “bino qilish”, “boshlash”* demakdir. Bu co'zning ma'nosi hozirda ancha torayib, asosan, o'quvchi va talabalar tomonidan yoziladigan ijodiy yozma ish ma'nosida qo'llanadi.

Insho - ijodiy ish: o'quvchidan faollik, qiziqish, fikr bildirishni talab qiladi. Material tayyorlash, uni tartibga solish, insho kompozitsiyasi va rejasi haqida o'ylash, logik bog'lanishni belgilash, so'z, so'z birikmasini tanlash, gap tuzish va uni o'zaro bog'lash, imloni tekshirish kabi barcha murakkab ishlar o'quvchidan aqliy kuchini to'la ishga solish bilan birga, o'z ma'naviy faoliyatini boshqarish ko'nikmasini ham talab etadi.

Inshoda til nazariyasi nutq tajribasi bilan qo'shiladi. O'quvchi inshoni, u mustaqil, ijodiy xarakterda bo'lgani, «o'ziniki»ni yozgani uchun ham sevadi.

Maktab rivojining barcha bosqichlarida bolalarning mustaqil tuzgan hikoyasi - inshoga alohida ahamiyat berilgan. Maktablar yangi, o'quvchilar nutqini o'stirish, aqliy, ijodiy o'sishiga mo'ljallangan dasturga o'tishi munosabati bilan uning ahamiyati yanada o'sdi.

Og'zaki va yozma inshoga o'rgatish jarayonida o'quvchilarda mavzuni tushunish va yoritish, o'z inshosini aniq fikrga bo'ysundirish, material to'plash, uni tartibga solish va joylashtirish, reja tuzish va reja asosida yozish, mazmunga va nutq vaziyatiga mos ravishda til vositalaridan foydalanish, yozgan inshosini takomillashtirish ko'nikmalari hosil qilinadi. Bulardan tashqari, «texnik» vazifalar ham amalga oshiriladi, ya'ni matnni yozishda imloviy va husnixatga doir matnni abzastlarga bo'lish, xat boshidan yozish, hoshiyaga rioya qilish kabi talablarga ham amal qilinadi.

Og'zaki va yozma insho material manbaiga, mustaqillik darajasiga, tayyorlash usuli, janri va til xususiyatiga qarab tasnif qilinadi.

Insho material manbaiga ko'ra uchga bo'linadi: 1) o'quvchining o'zi ko'rgan-bilganlari, eshitganlari haqidagi, ya'ni mehnat, kuzatishlar, ekskursiyalar, o'yinlar, o'z tajribasi va boshqa jonli materiallar asosidagi insho; 2) kitob materiali, rasmlar, film, spektakl, o'qituvchi hikoyasi va boshqa manbalar asosidagi insho; 3) turli manbalar materialidan foydalaniladigan insho.

Mustaqillik darajasiga, tayyorgarlik ko'rish metodiga ko'ra insho ikki xil bo'ladi: 1) sinf o'quvchilari uchun umumiy bir mavzu asosida jamoaviy tayyorgarlikdan so'ng yoziladigan insho; 2) alohida mavzu asosida individual tayyorgarlikdan so'ng yoziladigan individual insho.

Janriga ko'ra hikoya, tasvir, muhokama tarzidagi inshoga bo'linadi. Boshlang'ich sinflarda tasvir va muhokama elementlari mavjud bo'lgan hikoya tarzidagi inshodan ko'proq foydalaniladi.

Inshoni tasnif qilish ta'limiy vazifalarni chuqur anglash va metodik vositalarni tanlashga, shuningdek, ish turlarini zaruriy yo'nalishda, baravar taqsimlashga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda yozdiriladigan inshoning muhim turlaridan biri kichik yoshdagi o'quvchilarning shaxsiy hayotiy tajribasiga asoslangan inshodir.

Rasm asosidagi insho maktablarda tez-tez o'tkaziladi, chunki rasm bolalar nutqiy ijodini, tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Rasm bolalar sezgisiga ta'sir

etadi, hayotning bola tajribasida hali uchramagan tomonlarini ochadi. Rasm o'quvchilarga tanish bo'lgan hodisalarni chuqur anglashga ham yordam beradi.

Rasm asosidagi inshoning uch asosiy turi bor: 1) rasmlar seriyasi yoki rasmlari reja asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho; 2) sujetli, o'quvchilarni o'ylashga, faraz qilishga undaydigan bir rasm asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho; 3) rasmni tasvirlash (tasviri insho). O'quvchilar avval rasmlar seriyasi asosida, so'ng bir rasm asosida, undan so'ng tasviri insho yozish (rasmni tasvirlash)ga o'rgatiladi.

Dasturga ko'ra, 1-sinf o'quvchilari o'yinlari, mehnatlari, voqea-hodisalar haqidagi taassurotlari asosida o'qituvchi rahbarligida hikoya tuzishlari va uni ma'lum tayyorgarlikdan so'ng yozishlari; 2 - sinfda rasmlar seriyasi asosida kichik hikoya tuzish va uni jamoa tarzda tuzilgan reja asosida yozish; tabiatni kuzatish va mehnat jarayoni haqida, bolalarning o'yinlari, ishlari, sayillari haqida, avval o'qituvchi rahbarligida, keyin mustaqil ravishda kichik hikoya tuzish va uni yozish, shaxsiy ishlari haqida xat yoza olish; 3 - sinfda rasmlar (bir mavzuga oid bir necha rasm, sujetli bir rasm, rasmni tasvirlash) asosida, hayotiy tajribalari, kuzatishlari, ekskursiyalardan olgan taassurotlari asosida rejani, avval kollektiv ravishda, keyin mustaqil tuzib hikoya qilish va uni yozish talab etiladi.

Boshlang'ich sinflarda insho ta'limiy xarakterda bo'ladi, 3- sinfdagina tekshiruv insho o'tkazish mumkin. Rag'batlantirish maqsadida ta'limiy insholar ham baholanadi, lekin salbiy baho qo'yish tavsiya etilmaydi.

Boshlang'ich sinflarda yozma inshoga nisbatan og'zaki insho ko'p o'tkaziladi. Og'zaki hikoya tuzish bola maktabga kelgan birinchi kunlardan boshlanadi, yozma insho esa 1-sinf oxiri va 2-sinfdan boshlab o'tkaziladi.

O'quvchilarni tarbiyalashda inshoning ahamiyati. Inshoning tarbiyaviy ahamiyati tanlanadigan mavzuga, shuningdek, insho ustida o'quvchilar qanchalik mustaqil ishlashi va qiziqishiga, insho g'oyasiga ham bog'liq.

Insho bolalarni voqea-hodisalarni chuqur his etishga yordam beradi, izchil fikrlashga o'rgatadi, tilga va adabiy ijodga qiziqishlarini o'stiradi. Bolalar eng

qiziqarli va o'zlariga yaqin voqea-hodisalar haqida hikoya qiladilar va yozadilar, ularning inshosi mustaqil ishlash malakasini o'stiradi, ommaviy faollikni oshiradi.

Tanlangan mavzuning g'oyaviy yo'nalishini ochish tarbiyaviy vazifani hal qilishga imkon beradi. Bu jihatdan mehnat, mehnat qahramonlari haqidagi, bolalarning hayoti, maktab, tug'ilib o'sgan qishlog'i yoki shahri haqidagi, urush qahramonlari haqidagi mavzular ayniqsa qulay. Bu mavzulardagi insholar mehnat kishilariga, qahramonlarga chuqur hurmatni tarbiyalaydi.

Insho jamiyat hayotini tushunishga o'rgatadi. Tabiatga, kishilarga, ularning yaxshilikka intilishlari va harakatlariga, mehnatga va mehnat mahsuliga muhabbatni tarbiyalaydi, kishilar xatti-harakatidagi chiroyli jihatlarni egallashga, hozirgi zamon axloqiy talablarini anglashda bolalarga yordam beradi.

Inshoning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish uchun quyidagilarga rioya qilish talab etiladi:

1. Osondan qiyinga tamoyiliga rioya qilgan holda og'zaki va yozma inshoni muntazam o'tkazib borish bilan o'quvchilarda mustaqillikni tarbiyalash. Mustaqil insho o'quvchilar faolligini o'stiradi.

2. Inshoni hayot bilan bog'lash. Bunda kuzatishlar asosidagi insho, kundalik yuritish, qilingan ishlar yuzasidan «hisobot» tarzidagi insho, xat, maqola, o'qilgan kitob haqida taqriz kabilarning tarbiyaviy ahamiyati juda katta.

3. Insho uchun maktab va o'qituvchining tarbiyaviy vazifalariga mos bo'lgan mavzu tanlash. Bunday mavzularga mehnat haqidagi, kishilarning maqtovg'a loyiq ishlari haqidagi, axloqiy muammolar, Vatan haqidagi mavzular kiradi. Mavzuni o'qituvchi maktab sharoiti va o'z sinfi o'quvchilarining xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlaydi.

4. Insho ustida ishlashda ishning emotsionallik darajasini- ta'sirini oshirish. Tabiatni obrazli, emotsional tasvirlash, qahramonlikni yoki foydali harakatni qiziqarli, ta'sirchan qilib tasvirlash.

Vatan so'zida kishining bolalikda o'sib-ulg'aygan joyi tasviri ko'z oldiga keladi. Ishlab chiqarishga ekskursiya materiali asosida mehnat haqidagi insho yangi tarbiyaviy imkoniyatlarni ochib beradi: unda bolalar ishlab chiqarishdagi

muvaffaqiyat va qiyinchiliklar, ilg'or kishilar haqidagi, kasb va mutaxassislik haqidagi, texnika haqidagi ma'lumotlardan foydalanadilar. Ishlab chiqarishga ekskursiya va mehnatni tasvirlash bilan bog'liq holda kasb haqida suhbatlashishga to'g'ri keladi va bu inshoda o'z aksini topadi. Mehnat haqidagi insho gazetaga maqola shaklida yozilishi mumkin. Mehnat yoki ishlab chiqarish haqidagi insho mavzulariga «Bizning qishloq», «Karam uzish», «Bog'da», «Bizning jamoa xo'jaligimiz», «Pochtada», «Do'konda», «Paxtakorlarga yordamimiz», «Bizning hashar», «Maktab yer uchastkasida», «Daraxt o'tqazish» kabilar kiradi. «Men nimalarni bilaman» mavzusidagi tanlovga bolalar juda qiziqadilar. Tanlov bolalarning mehnat ko'nikmalarini aniqlabgina qolmay, ularni uyda, polizda, bog'da ishlashga rag'batlantiradi. Maqsad kishilarga foyda keltiruvchi mehnatga hurmatni tarbiyalashdir. Qishloq maktab o'quvchilari ota-onalariga sabzavotlar ekish, hosilni yig'ish, o'tin tayyorlash kabi ishlarda qanday yordamlashganliklari haqida yozadilar. Sinfda mehnat haqidagi insho muhokama qilinadi. Bolalar foydali, zaruriy ijtimoiy faoliyat sifatida mehnatning mohiyatini tushuntiradilar. Ular har qanday mehnat e'zozlanishini aytadilar.

Kelajak haqida «Kim bo'lishni xohlayman?» mavzusida tayyorgarliksiz hikoya qilish tarzidagi insho ham katta tarbiyaviy kuchga ega.

Juda yaxshi yozilgan inshoni sinfda ifodali o'qib berish va tahlil qilish bolalarni tarbiyalaydi. Ba'zi maktablarda bolalar inshosi va hatto bolalar she'rlari to'plami tuziladi, yaxshi yozilgan hikoya uchun tanlov e'lon qilinadi.

Insho mavzusi va uni yoritish. Mavzu insho predmeti bo'lib, uning mazmunini tashkil etadi. Mavzuga qarab inshoda aks ettiriladigan materiallar, dalillar, hodisalar tanlanadi. Inshoning to'g'ri va to'liq bo'lishi o'qituvchi mavzuni qanday shakllantirishi, o'quvchilar uni qanday tushunishlariga bog'liq.

Insho ustida ishlashda mavzu tanlash, uni rejalashtirishda esa og'zaki va yozma insho mavzusini belgilab olish muhim rol o'ynaydi.

O'quvchilar mavzuni yoritishga 1-sinfдан boshlab o'rganadilar. Ular mavzuga oid gap tuzadilar. Masalan, qish havosi haqida, ona qishlog'i (shahri) haqida, qo'rqqoq quyon, ayyor tulki haqida gap tuzadilar. Keyin savollar asosida bir

mavzuga oid bir necha gap tuzib, uni yozadilar. Insho uchun iloji boricha tor - aniq chegaralash mumkin bo'lgan mavzuni tavsiya qilish foydali. «Kuz» mavzusi o'quvchilar uchun juda keng mavzu bo'lib, bunda o'quvchi umuman kuz haqida, kuzda qilinadigan ishlar haqida yozishi mumkin, u yozadi - gaplarining aniq chegarasini bilmaydi. O'quvchilarga kuzga oid «Paxta terimiga yordam», «Kuz kunlarining birida», «Oktyabrda ob-havo», «Bog'da olma terdik», «Pomidor terishga yordamlashdik», «Kech kuzda bog' manzarasi» kabi mavzularni tavsiya qilish mumkin.

Og'zaki va yozma insho ustida ishlashda mavzu berib uni yoritishni talab qilishdan tashqari, avval material to'plash va shu yig'ilgan materiallar asosida mavzuni shakllantirishni tavsiya qilish ham mumkin. Masalan, kech kuzda tabiatni kuzatish va material yig'ish tavsiya qilinadi: kuzatishlar «Kech kuzda» mavzusida insho yozish bilan yakunlanadi. Bunda o'quvchilar mavzuni to'liq yoritadilar.

Reja tuzish. Reja har qanday og'zaki yoki yozma hikoya qilishning zaruriy pog'onasi, uning «loyihasi»dir. Kishi o'z nutqi haqida o'ylab, asosiy gaplarini belgilab oladi. Insho uchun reja tuzish shuning uchun ham zarur. 1 - sinfda reja rolini o'qituvchi savollari, ya'ni so'roq gaplar tarzidagi reja bajaradi; 2 - sinfda reja jamoa o'qituvchi rahbarligida tuziladi; 3 - sinfda esa mustaqil tuziladi. Boshlang'ich sinflarda 3 - 5 talik reja tavsiya qilinadi.

Bolalar avval o'qigan hikoyalariga reja tuzadilar va uni reja asosida qayta hikoya qiladilar, keyin insho rejasini tuzadilar, so'ng bir mavzuga oid bir necha rasm (rasmlar seriyasi) asosidagi insho rejasini, ya'ni rasmlari reja tuzadilar, inshoga sarlavha topadilar. Shundan so'ng tasvirlangan voqea-harakatlar aniq ajratilgan, reja tuzishga qulay bo'lgan rasm yoki kuzatishlar asosida yoziladigan insho rejasini tuzishga o'tiladi. Reja tuzishga o'rgatishda oldin nima haqida to'xtalish, keyin uni qanday davom ettirish, undan so'ng nima haqda aytish, nihoyat, hikoyani qanday tugatish kerakligini o'quvchilarga tushuntirish foydali usul hisoblanadi. Reja avval so'roq gap tarzida, keyin darak gap, oxiri nominativ gap tarzida tuziladi.

Reja ko'pincha insho yozishdan oldin unga tayyorlanish jarayonida (rasm asosida yoziladigan insho rejasi kabi) tuziladi. Ba'zan rejani ekskursiya, kuzatishdan oldin, unga tayyorgarlik jarayonida tuzish maqsadga muvofiq. Ekskursiya, kuzatish, ijtimoiy foydali mehnat rejasi shu ishlar bajarilishidan oldin yoki ular yuzasidan material to'plash, insho uchun material tanlash va uni tartibga solish jarayonida tuziladi. Bunday reja insho yozishdan oldin ko'rib chiqilib, unga ayrim aniqliklar kiritiladi.

Inshoni yozishga tayyorlash. Og'zaki yoki yozma inshoning turi va vazifasiga qarab unga tayyorgarlik ko'riladi.

Inshoga tayyorgarlikni o'qituvchi boshqaradi, bunga o'quvchilarni ishtirok ettiradi, ularning o'ta faolligi va mustaqilligiga erishadi. Tayyorlik deganda, birinchidan, o'quvchilarda nimanidir tasvirlashga, hikoya qilishga talab uyg'otadigan vaziyat yaratish; ikkinchidan, insho uchun yetarli bo'lgan zarur material yig'ish; uchinchidan, mavzuga oid, uni yoritishga mos bo'lgan til vositalarini tanlash tushuniladi.

Inshoga tayyorlik inshoni yozishdan bir necha kun ilgari boshlanadi, darsdan tashqari vaqtlarda va boshqa darslar jarayonida ham olib boriladi. Og'zaki yoki yozma insho ustida ishlash uch bosqichga bo'linadi:

1) material yig'ish, ya'ni kuzatish, ekskursiya, mehnat jarayoni, rasmni ko'rib chiqish, kinofilm, spektaklni ko'rish, badiiy va boshqa adabiyotlarni o'qish;

2) mavzuga va uni yoritishga mos material tanlash, uni tartibga solish, joylashtirish, ya'ni suhbat, muhokama qilish, zarur materialni ajratish, reja tuzish, lug'at ustida ishlash, imlo va leksik tomondan tayyorlash va hokazo;

3) inshoni nutqiy shakllantirish, ya'ni insho matnini tuzish, uni yozish, takomillashtirish, xatolarni to'g'rilash va uni tekshirish.

Birinchi va ikkinchi bosqichdagi ishlar, odatda, darsdan tashqari vaqtda bajariladi. Masalan, ekskursiya asosidagi insho uchun material yig'ish uni yozishdan ancha ilgari boshlanadi; tabiat hodisalarini kuzatish bir hafta, hatto undan ko'proq davom etadi; rasmlar esa insho yozishdan oldin ko'riladi. Shunday qilib, insho yozish yoki og'zaki hikoya qilish darsi ilgari bajarilgan ishlarning

yakunidir. Insho darsining umumlashtiruvchilik roli bog'lanishli nutq sohasidagi ko'nikmalarni egallash me'yoriga qarab ortib boradi.

Insho darsining qurilishi tayyorlov bosqichining xarakteriga bog'liq. Tayyorlov bosqichida qancha ko'p ishlansa, insho darsida matn ustida shuncha chuqur ishlash imkoniyati yaratiladi. Insho yozishdan oldin yoki og'zaki hikoyalashda yig'ilgan materiallarni o'quvchilar yodiga tushirish, ularda qiziqish uyg'otish, yozishga yoki hikoya qilishga xohish uyg'otish zarur.

Insho yozish uchun 2- sinfda odatda bir dars, zarur bo'lib qolsa, ikkinchi darsdan 15-20 minut, 3-sinfda bir yoki bir yarim dars, ayrim vaqtlarda ikki darsgacha ajratiladi. Bulardan tashqari, insho tahlili va xatolar ustida ishlash uchun 20-25 minut vaqt ajratiladi. Bunda eng yaxshi yozilgan insholar tahlil qilinadi, imloviy, punktuastion, nutqiy, logik xatolar va mazmundagi yetishmovchiliklar ustida ishlanadi.

Insho yozish darsida quyidagi bosqichlarga rioya qilinadi: 1) mavzuni, inshoning vazifasini e'lon qilish (yoki yodga tushirish), uni o'quvchilar bilan muhokama qilish; 2) kuzatish davrida to'plangan materialni tartibga solish yoki material yig'ish (masalan, rasmga qarab insho yozish uchun rasmni ko'rish) maqsadida suhbat o'tkazish; 3) reja tuzish yoki avval tuzilgan rejaga aniqlik kiritish; 4) matnni nutqiy tayyorlash, ya'ni zarur so'zlarni yozish; so'z birikmasi, gap yoki bog'lanishli matnning ayrim qismini tuzish; imlosi qiyin so'zlarning yozilishini tushuntirish va boshqalar; 5) darsning asosiy qismi bo'lgan inshoni yozish; o'quvchilar inshoni yozayotganlarida, o'qituvchi ular ishini kuzatadi, ayrim o'quvchilarga (boshqalarga xalaqit bermay, ular e'tiborini chalg'itmay) individual yordam beradi; 6) o'quvchilar yozgan insholarini tekshiradilar, kamchiliklarini to'ldirib, xatolarini to'g'rilaydilar.

Boshlang'ich sinflarda bolalar inshoni oqqa ko'chirmaydilar, kerakli tuzatishlarni ehtiyotlik bilan kiritadilar, bunday tuzatishlar uchun insho bahosi pasaytirilmaydi, aksincha, matnni yaxshi to'g'rilagan o'quvchi rag'batlantiriladi; 7) bolalar inshoni o'qituvchiga tekshirish uchun topshiradilar; o'qituvchi ikki kun ichida tekshiradi.

Keyingi ona tili darsining ikkinchi qismidan 15-25 minut vaqt ajratib, tekshirilgan insholar yuzasidan yakuniy mashg'ulot o'tkaziladi (insho tahlil qilinib, xatolar ustida ishlanadi).

O'qituvchi har bir insho turi uchun o'quv vazifasini belgilab oladi. Masalan, rasmlar seriyasi asosida birinchi marta yozdiriladigan insho uchun quyidagi vazifalar belgilab olinadi:

1. O'quvchilarni inshoning yangi turi bo'lgan rasmlar seriyasi asosidagi insho bilan tanishtirish.
2. Rasmlar asosida matn rejasini tuzish.
3. Reja qismlariga mos ravishda matnni abzastlarga bo'lish va har birini xat boshidan yozish.
4. Insho matnini mustaqil tekshirish va takomillashtirish.

O'quvchilarning mustaqillik darajasi o'sib borgani sayin, inshoga talab ham orta boradi.

O'quvchilar inshosini tahlil qilish. Nutq o'stirish metodikasida o'quvchilar inshosi uchun baho me'yori muhim masala hisoblanadi. Tabiiyki, bunda yuqorida insho etilgan asosiy talablarga rioya qilinadi.

O'quvchilar inshosini baholashda quyidagilar hisobga olinadi:

1. Insho mavzusining yoritilishi (mazmun mavzuga mosmi, yetarli yoritilganmi?). Mazmun haqiqatga mos keladimi?
2. Reja, kompozitsiya, izchillik (reja to'g'ri tuzilganmi, materialni insho qilish tartibi rejaga mos keladimi, mazmunda takror yo'qmi, zarur o'rinlar tushib qolmaganmi, izchillik buzilmaganmi?). Asosiy fikr aniqmi, xulosa chiqarilganmi?
3. Janri, uslubi (hikoya tarzidagi matnda tasviriy va muhokama elementlari bormi; uslubda xatoga yo'l qo'yilmaganmi; insho mavzusi va vaziyatni yoritish vazifasini janr va uslub oqlay oladimi? Badiiylik elementlari bormi?)
4. Insho hajmi (so'z, gap soni; lakonizm yoki ko'p so'zlilik).
5. Leksika (so'zlardan to'g'ri foydalanish, sinonim, antonim, frazeologizmlardan foydalanish).

6. Sintaksis (gapning hajmi, sintaktik konstruktsiyalarning bir xil yoki har xilligi, murakkab konstruktsiyalar bormi?).

7. Imloviy va punktuastion savodxonlik, xatolar xarakteri (qo'pol va juz'iy xatolar).

8. Husnixat, tashqi tomondan shakllantirish (hoshiyaga, xat boshidan yozishga, sarlavhani to'g'ri joylashtirishga rioya qilish).

O'quvchilar inshosiga qo'yilgan bunday talablar uni baholashga bir xilda yondashishga imkon beradi.

2-bob.O'quvchilarning fikrlash qobiliyatini faollashtirishda ijodiy ishlarni tashkil etish muammolari

Ta'limni, jumladan, boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini ijodiy tashkil etishni hech kim inkor qilmaydi. Aksincha, ta'limni ijodiy tashkil etish yo'li bilan uning samaradorligini oshirish, yoshlarni hayot, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashning sifatini yaxshilash mumkinligini o'qituvchilar ham, ilmiy jamoatchilik ham e'tirof etadi. Ammo shunga qaramasdan, fan mutaxassislari, shuningdek, maktab o'qituvchilari orasida ijodiy ta'limni noijodiy ta'limdan farq qilish sohasida tushunmovchiliklar, ularning o'zaro tafovutlarini ajratishda kamchilik, etishmovchiliklar ko'plab topiladi. Shundan bo'lsa kerak, o'quvchilarga beriladigan mustaqil ishlarning barchasi ijodiy ish sifatida qabul qilinadi. Haqiqatan ham sinfda tashkil etiladigan o'quv topshiriqlarining barchasini mustaqil ish, mustaqil ishlarning esa barcha ko'rinishi va turlarini ijodiy ish deb qarash mantiqan chalkashlikka olib keladi. Bunday murakkab holatdan chiqib ketishning asosiy yo'llaridan biri "mustaqil ish" va "ijodiy ish" tushunchalarini o'zaro chog'ishtirib o'rganish, ularning har biriga oid alomatlarini alohida-alohida ajratib ko'rsatishdir. Yana bir munozarali muammo ijodiy ishni noijodiy ishdan farqlash masalasidir. Ijodiy va noijodiy topshiriqlarning farqlarini aniq chegaralamasdan turib, ta'limni ijodiy tashkil etish to'g'risida fikr yuritib bo'lmaydi. Shunday ekan, o'quvchilarning tafakkuri bilan bilish faoliyati xususiyatlarini tizimli tahlil qilishni taqozo qiladi. Bilish faoliyati nuqul tafakkurning ishimi yoki bilish jarayonlarida xotira ham ishtirok etadimi? Bulardan ko'rinadiki, boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish o'ta murakkab metodik hodisadir.

Fanning tadrijiy taraqqiyotida ijod muammosini o'rganish asta-sekin psixologiyadan pedagogika (didaktika)ga, undan metodika sohasiga ko'cha boshladi. Natijada umumiy didaktika va metodika sohasida ilmiy izlanishlar o'tkazildi. Qator ilmiy tadqiqotlarda o'quvchilar faolligi va mustaqilligi muammosi keng o'rganildi. Shunday izlanishlar sirasiga I.A.Allayorov [18], V.M.Karimova, R.N.Sunnatova, R.N.Tojiboyeva [46], P.K.Pidkasistiy [68], O.R.Roziqov [74], A.Q.G'ulomov [109] kabi qator olimlar o'tkazgan tadqiqotlar kiradi.

Didaktikada muammoli ta'lim munosabati bilan bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi alohida yo'nalish sifatida ajralib chiqdi. Muammoli ta'limga oid ilmiy didaktik tadqiqotlar yaratildi: I.V.Dorno umumiy o'rta ta'lim maktablarida muammoli ta'limni tashkil etish vositalari, usullari, tamoyillarini tahlil qilgan bo'lsa [37], R.I.Ibragimov o'zbek maktablari tajribasida boshlang'ich ta'limga muammoli yondashuv tamoyilini tizimli o'rgangan [41]. Tataristonlik didakt olim M.I.Maxmutov turli o'quv predmetlaridan olingan dalillarni tahlil qilib, muammoli ta'limning nazariy va amaliy tomonlarini bolalarning faolligi va mustaqilligi bilan aloqadorlikda o'rganib, sinfda darsning borishiga qarab muammoli holat yaratish, muammoli ta'lim metodlarini alohida o'rganish, muammoli ta'lim munosabati bilan dars turlarini tahlil qilish sohasidagi xizmatlari hali ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ayniqsa, M.I.Maxmutov o'quv topshiriqlari va biluv topshiriqlarini o'zaro taqqoslab o'tkazgan izlanishlari diqqatga sazovordir. Bola biluv topshiriqlari vositasida yangi bilim, yangicha faoliyat ko'rsatish usullarini o'rganib oladi. Shu jihatga ko'ra muammolilik kasb etadi. Zero, o'quvchi muammo va topshiriqni bajarish jarayonida ta'limda faol ishtirok etadi. O'quv topshiriqlari keng hodisa bo'lib, ular bilimlarni kengaytirish, malakalarni rivojlantirishga zamin yaratadi [58, 55-65]. Muammoli ta'limning maqsadi,-deb yozgan edi M.I.Maxmutov,-“o'quvchilarning biluv mustaqilligini shakllantirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat” [58, 20].

Ta'limni ijodiy tashkil etish muammosining pedagogik jihatlari B.R.Adizovning «Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari» nomli doktorlik dissertasiyasida keng o'rganilgan. U ta'limni ijodiy tashkil etishni kompleks muammo sifatida ajratib, uning tarkibini mantiqiy tahlil qilishga alohida e'tibor qaratgan. “Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etish obyektiv reallik-ta'lim jarayonining izlanish hamda tahlil qilish maqsadida ajratilgan alohida nuqtai nazar bo'lib, kompleksning realligi o'zida (ta'lim jarayonining real amal qilishi ko'zda tutilgan-A.H.) zuhur etadi. Shunday bo'lgach, muammoni tashkil etgan tarkibiy qismlarni aniq tasavvur qilmasdan turib, ilmiy izlanishni asoslash mumkin emas [13, 33-34].

Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etish masalalarini B.R.Adizov “tadqiqotchi-muammo” tizimida tahlil qilib, uning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratadi: ijodiy ta'limni tashkil etish, bolalarning o'quv materiallarini ijodiy

o'zlashtirishi, o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni tarbiyalash. Bu masalalarning barchasi "ijodiy ta'lim" kontekstida tadqiq qilinadi [13, 37]. B.R. Adizovning yozishicha, ijodiy ta'limni tashkil etish-bu o'quv material bilan o'quv faoliyati o'rtasidagi aloqalarni yuzaga chiqarishdir. U o'quvchi va o'quv material o'rtasidagi to'rt xil aloqa turini tasnif etgan: mazmun aloqa; maqsad aloqa; funksional aloqa; vositaviy aloqa [13, 57-59]. Bu aloqalarning amal qilishi uchun o'quvchining ta'lim jarayonidagi maqomini o'zgartirishga ehtiyoj tug'iladi. Shu tufayli muallif ta'limda o'quvchilarning faol ishtirokini, ularning o'quv-biluv faoliyatini asosli tahlil qilgan. Ushbu tadqiqotda bolalarning o'quv-biluv faoliyati ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida qaralib, o'quvchi ijodkorligining qator tamoyillari ajratilgan: ziddiyatlilik, onglilik, mustaqillik, faollik, sababiyatlilik [13, 86-88].

Tahlil qilinayotgan tadqiqotda bolalarning o'quv-biluv faoliyatining to'rt asosiy komponenti ajratilgan. Bular maqsad, motiv, vosita, natijadir. Faoliyatning shu jihatlari keng tahlil qilinib, unga quyidagi umumiy ta'rif berilgan: "Faoliyat-bu ijtimoiy qimmatli motivlarga ko'ra maqsadga yo'nalgan, o'ziga oid vositalar asosida ma'lum natija bilan yakunlanadigan xatti-harakatlar tizimi" [13, 119]. Keltirilgan umumiy ta'rifga rioya qilib, bolalar faoliyatining ikki nuqtai nazari ajratilgan: o'quv faoliyati; biluv faoliyati [13, 120]. Muallif faoliyatning mazmuni, maqsadi, vositasi, natijasiga umumiy tavsif berib, bolalarning o'quv faoliyati va biluv faoliyatining har biriga xos belgilarni ajratib ko'rsatgan.

B.R. Adizov bolalarning o'quv faoliyati va biluv faoliyatini o'zaro chog'ishtirib, ta'limni ijodiy tashkil etish muammosining mohiyatini va uning o'ziga xos belgilarini ajratgan. Aftidan xuddi shunday yo'l bilan ijodiy ta'limni tashkil etish muammosiga yanada yaqinroq yondashish mumkin. Ijodiy ta'limning mohiyati va uning o'ziga xos belgilarini bir-biridan ajratib o'rganib bo'lmaydi. Mohiyat-bu ijodiy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlar bo'lsa, uning belgilari ijodiy ta'limni noijodiy ta'limdan farqlash o'lchovlaridir. Shu tufayli biz Y.A. Ponamarevning quyidagi fikrini ijodiy ta'limni o'rganishda rioya qilinadigan asosiy talab sifatida qabul qilamiz: "ijodiyot mohiyati va uning o'ziga xos me'yorlari bir muammoning ikki tomonidir" [70, 40].

B.R.Adizovning ijodiy ta'lim mohiyati va uning o'ziga xos o'lchovlariga oid fikrlarini tahlil qilishda Y.A.Ponamarevning yuqoridagi mulohazasini asos qilib olamiz.

B.R.Adizov ijodiy ta'lim muammolarini bayon qilishda "o'rganish" atamasiga alohida diqqat qilib, bola o'quv faoliyatida ham, biluv faoliyatida ham o'rganadi, deb yozadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatida o'qish, hisoblash, buklash, qirqish, o'lchash, yozish, chizish, kuzatish, taqqoslash, tinglash, javob qaytarish kabi o'quv harakatlari qo'llanadi. Bolalar natijaga ikki yo'l bilan erishadi: tayyor bilimlarni o'rganish. Bunday bilimlar o'quv faoliyati mahsuli sanaladi. O'quv predmetiga oid dalillarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish yo'li bilan o'rganish. Bunday bilimlar biluv faoliyati, binobarin, ijodiy faoliyat mahsuli hisoblanadi [13, 142].

B.R.Adizov o'quv faoliyati va biluv faoliyatini o'zaro taqqoslab, boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning qator o'lchovlarini asoslab bergan. Ta'limni ijodiy tashkil etish-bu:

- ta'limda o'quvchi maqomini o'zgartirish, uni ta'lim jarayoni subyektiga aylantirish,

- me'yoriy ta'limlar doirasidan chiqib, ta'limni o'tkazish,

- bolalar faoliyatini bilim, ko'nikma-malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar kompleksiga yo'naltirish,

- o'ziga xos maqsad, vosita, natija, motivlarni ko'zlab ta'limni tashkil etish,

- ta'limni tafakkurga mo'ljallab o'tkazish,

- bolalar o'zlashtirishini istiqbolga (kelajakda bilimdon fuqaro bo'lib etishish) rag'batlantirish demakdir.

B.R.Adizov ta'limni ijodiy tashkil etish muammosining mohiyatini tahlil qilib, uning o'ziga xos o'lchovlarini qayd etgach, ta'lim jarayonini ijodiy tashkil etish vositalarini tadqiq qilishga o'tgan. Ta'limni ijodiy tashkil etish vositalari nihoyatda ko'p. Ammo B.R.Adizov o'tkazgan tadqiqotda ijodiy ta'limning bir vositasi-biluv topshiriqlari o'rganilgan. Tadqiqot ishida biluv topshiriqlari mohiyati, turlari, qurilishi-tarkibi, ulardan ta'lim jarayonida foydalanish texnologiyasi bayon qilingan.

Psixologiya va didaktikada ta'limni ijodiy tashkil etish masalalari asoslangan sari ijodiy ta'lim muammosi til metodikasi sohasiga ko'cha boshladi. Bunday tadqiqotlarni ikki guruhga ajratib o'rganishga to'g'ri keldi: rus tili metodikasi bo'yicha ta'limni ijodiy tashkil etishga doir tadqiqotlar: A.A.Kalitina boshlang'ich sinflarda ijodiy mashq o'tkazish usullarini [45] tahlil qilgan. T.S.Krasota "Ot-so'z turkumi" bo'yicha ijodiy ishlarni o'tkazish usullarini [50], N.A.Lashkarova rus tili darslarida bolalarning ijodiy mustaqilligini rivojlantirishni predmetlararo aloqa nuqtai nazaridan bayon qilgan [51]; A.Y.Bobomurodova [29], A.Q.G'ulomov [36], T.U.Ziyodova [40], O.Roziqov [72], R.G'.Safarova [80], D.R.Toshxo'jayeva [85], T.T.G'aniyev [100]larning ilmiy metodik izlanishlari o'zbek maktablarida ona tili ta'limini ijodiy tashkil etishga bag'ishlangan ilmiy-metodik izlanishlardir.

2.1.Boshlang'ich sinflarda ijodiy ishlarni tashkil etish orqali o'quvchilar fikrlash qobiliyatini faollashtirish

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish tajribasini tizim sifatida qarab, ijodiy ta'lim amaliyoti xususiyatlarini ajratishga, maktab o'qituvchilarining ijodiy ta'lim to'g'risidagi fikrlarini qayd etishga harakat qilamiz. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish amaliyotining real ahvoli va o'qituvchilarning o'z fikrlarini bir-biri bilan taqqoslab ijodiy ta'limning kuchli hamda zaif tomonlarini ajratamiz.

1. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish tajribasi. Ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish bo'yicha mavjud tajribani o'rganish va umumlashtirish maqsadida ilg'or o'qituvchilarning darslari kuzatilib, yozib olindi. Darslarni kuzatish va qayd etish jarayonlarida quyidagi savollarga javob izlandi: a) ijodiy ta'limning maqsadi bilan daxldor savollar-ta'limni ijodiy tashkil etishning maqsad, vazifalari, tanlangan o'quv topshiriqlarining ijodiy ta'lim maqsadi, vazifalariga mosligi; b) ijodiy ta'lim mazmuni bilan daxldor savollar-ijodiy o'quv topshiriqlarining mazmuni nimalarga ko'ra aniqlanadi, ijodiy topshiriqlarning o'quv material mazmuniga mosligi, bolalarning real o'quv imkoniyatlariga muvofiqligi, u yoki bu ijodiy ishning o'quv topshiriqlari tizimidagi o'rni; d) ijodiy ta'limning jarayoniy xususiyatlari bilan aloqador savollar-ijodiy topshiriqlarning dars turi, bosqichlariga mosligi, ijodiy ta'limda bolalarning real o'quv imkoniyatlari, ishlash tempi bilan bog'liqligi, ijodiy ishlarni bajarishda foydalaniladigan usullar, ijodiy topshiriqlarni bajarishda oldin o'rganilgan bilim va faoliyat usullarini qo'llash, yangi bilim va faoliyat usullarini qayd qilish vositalari; e) ijodiy ishning natijasi bilan daxldor savollar-u yoki bu ijodiy ishning o'quvchilar uchun ahamiyati, o'quv topshiriqlarining o'quv material mazmunini

to'liq o'zlashtirish talablariga yetarlighi, ijodiy ishlarning bolalarda mustaqil faoliyatni shakllantirishdagi roli va sh.k.

Darslarni kuzatish va qayd qilishda prof. O.Roziqov ishlab chiqqan dars turlarini asos qilib oldik [73]. Bunda quyidagi dars turlari qayd qilingan: yangi o'quv materialini o'rgatish va mustahkamlash darslari; o'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslari; bilim va malakalarni umumlashtirish darslari; bilim va malakalarni nazorat qilish darslari [73, 34-68]. Ta'limni ijodiy tashkil etish muammosi bo'yicha 200 dan ortiq dars qayd qilinib, yozib olindi. Ijodiy ishlarni tashkil etishga oid kuzatilgan darslar taqsimoti 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

**Ijodiy ishlarni tashkil etishga oid kuzatilgan darslar
taqsimoti**

Kuzatilgan darslar miqdori	Dars turlari			
	Yangi mavzuni o'rgatish va mustahkam- lash darsi	O'tganl arni takrorlash va malaka hosil qilish darsi	Bilim va malakalarni umumlashti-rish darsi	Bili m va malaka- larni nazorat qilish darsi
200	57	123	8	12

Jadvaldankorinadiki,
onatiligaoiddarsturlariningharbiridaijodiyta'limnitashkiletishimkoniyatlarinihoayatd
akeng.Birinchidarsturi-
onatilidanyangio'quvmaterialinio'rgatishvamustahkamlashdarsiningyadrosibolalar
niyangimavzunio'rganishgatayyorlash, yangita'rif, qoidalarni,
mavzugaoiddalillarniidrokqilishnita'minlash,
idroqqilinganfaoliyatdanilkboro'tganbilim,
faoliyatusullarinimustahkamlashdaniborat. Ta'limjarayonidamuammolarqo'yish,
savollarnio'rtagatashlash,
qiyino'quvholatlarihosilqilishyo'llaribilano'quvchilardiqqatyangimavzuvaungaoid
dalillargatortiladi, mavzunio'qitishmaqsaditushuntiriladi. Binobarin,
bolalargao'zmaqsadlarinimustaqilbelgilashgajalbqilish,

qo'yilgan muammoning qiyinligini anglatish,
qo'yilgan savollarga javob berish yo'llari orqali ham ta'limning samaradorligini oshirish,
h, bolalarni ijodiy ishlashga undash mumkin. Darsning ikkinchi bosqichi-
yangi bilim va faoliyat usullarini idrok etish bosqichida ham o'quvchilarning ijodiy izlari
shlari ni o'tkazish imkoniyatlarini yaratib beriladi:
oldin o'rganilgan mavzu ga va endi o'rganilayotgan mavzu ga oid dalillarni o'zaro taqqoslash,
ash, mavzu ga oid dalillarni kuzatish, kuzatilgan dalillardan xulosalar chiqarish,
chiqarilgan xulosani darslikdagi berilgan ta'rif, qoidaga taqqoslash.
Bukorinishdagi o'quv yumushlari bolalarning ijodiy mustaqil faoliyatini ta'minlaydi. X
uddishun ga o'xshab, mavzu o'rganilgach, uni mustahkamlash bosqichida ham turli-
tuman ijodiy ishlarni o'tkazish bo'ladi. Bunday ko'rinishdagi ijodiy ishlarni sirasiga o'rganil-
lgan ta'rif, qoidalar ni yangi dalillarga ko'chirish, ta'rif,
qoidalar ni yangi o'quv holatiga tatbiq qilish kabii ijodiy ishlarni kiradi.
Bulardan ayon bo'ladi ki,
dars turlarining har birida bolalarni ijodiy ishlarga jalb qilish imkoniyatlarini hayotdagi
pbo'lib, ularni metodik jihatdan to'g'ri belgilab olish dolzarb muammasan aladi.
Shu munosabat bilan o'qituvchilarni tajribasiga murojaat qilamiz:
yangi o'quv materialini o'rgatish va mustahkamlash dars tibi bo'yicha 57
tamashg'ulo tuzatilib, ularda hammasi bo'lib 25 marta ijodiy ishtashkiletildi.
Har bir ijodiy ishgao'rtacha 3
minut dan vaqt ajratildi. Ijodiy ishlarda darsning asosiy bosqichlariga taqsimoti 2-
jadvalda keltirildi.

2-jadval

Yangi o'quv materialini o'rgatish va mustahkamlash darslarida ijodiy ishlarning miqdori

Y ozib olingan darslar miqdori	O'q uv vaqti (minut hisobida)	Darsning asosiy bosqichlari			Ij od. ish uchun ajrat. vaqt (% hiso bida)
		Yangi o'quv materialini o'rganishga tayyorgarlik	Yangi o'quv materialini o'rgatish	Yangi o'quv materialini mustahkam Lash	

57	256	12	33	30	7
	5				5
(%) his obi-da	100	≈2,3	≈6,2	≈5,3	≈ 13,8

Jadvaldan ikki xil xulosachiqarish mumkin: avvalo, onatildarslarining birinchi turidagi ijodiy ishlarni tashkilotishgani hoyatda o'z vaqtajratilsa -da, ahyon-ahyondao'tkazilib turiladi; ammo shunga qaramasdan onatilimashg'ulotlaridabolalarning ijodiy ishlarigani hoyatda o'z vaqtajratiladi. Har bir ijodiy ishni tayin etish va bajartirish uchun o'rtacha 3 minut vaqt beriladi. Yangi o'quv materialini o'rgatish va mustahkamlash darslarida umumiy vaqt byudjetining taqriban 14%i ijodiy ishlarga sarflanadi. Vaqt byudjetini bu shaklda taqsimlash o'qituvchining faolligiga asoslangan bo'lib, unda yangi o'quv materialini, asosan, deduktiv yo'l bilan tushuntiriladi. Deduksiya o'quv materiallarini izchil bayon qilish yo'li bo'lsa-da, unda o'quvchilarning faolligi ma'lum darajada chegaralanadi. Muammoning shu jihatiga didakt va psixolog olimlar ham alohida diqqat qilishgan edi. M.N.Alekseyev o'quv materiallarini deduktiv hamda induktiv yo'l bilan o'rgatishning kuchli va zaif jihatlari xususida alohida to'xtalib, bunday deb yozgan edi: "O'quv materialini deduktiv yo'l bilan bayon qilganda, bolalarning ijodiy qobiliyatlari kam taraqqiy etadi"¹. Xuddi shunday fikr Y.A.Ponamarevda ham bor: deduktiv yo'l bilan chiqarilgan xulosalar yangi bo'lsa-da, ijodiy emas" [70, 130].

Ikkinchi dars turi-o'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darsida o'rganilgan mavzular bo'yicha malakalar takomillashtiriladi. Biz shu tipdagi darslardan 123 tasini yozib olganmiz. Kuzatilgan darslarda, asosan, darslik mashqlari ustida ish qilinadi. O'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslari bolalar xotirasiga mo'ljallangan bo'lib, ularda bilimlarni o'xshash sharoitlarga

¹ Alekseyev M.N. Deduksiya i induksiya v uchebnom prosesse.// Sovetskaya pedagogika, 1969, № 1, s. 104

tatbiq qilish kabi o'quv yumushlariga ko'p vaqt ajratiladi. Bu o'z navbatida ijodiy topshiriqlarni ta'limga tatbiq etish uchun juda oz vaqt ajratishga olib kelmoqda. Kuzatilgan darslarda hammasi bo'lib, 103 marta ijodiy ish o'tkazilib, o'rtacha 5 minutdan vaqt sarflandi. Ijodiy ishlarning barchasi o'rganilgan bilimni berilgan holatlarga tatbiq qilish xarakterida edi.

Metodik adabiyotlarda o'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslarining uchta asosiy bosqichi ajratiladi: o'rganilgan bilim va faoliyat usullarini faollashtirish. Berilgan dalillarning qaysi ta'rif, qoidaga taalluqligini aniqlash, topshiriqni bajara turib, ta'rif, qoidalarni esga tushirish, qo'yilgan muammoning qaysi ta'rif, qoidaga ko'ra hal qilinishini belgilash va sh.k. Bunday o'quv holatlarida o'quvchilar bilim va faoliyat usullarini ongli, mustaqil faoliyat ko'rsatish yo'llari bilan esga tushirishadi. Kuzatilgan darslarda bu tipdagi ijodiy ishlar tashkil etiladi; o'rganilgan bilim va faoliyat usulini turli o'quv holatlariga tatbiq qilish. Biz kuzatgan 103 ijodiy topshiriq darsning ikkinchi bosqichiga-bilim va faoliyat usullarini berilgan holatlariga tatbiq qilish jarayoniga mos keladi; o'rganilgan ta'rif, qoidalar o'zlashtirilgan tushunchalarning yangi-yangi qirralarini aniqlash bosqichi. O'rganilgan ta'rif, qoida bo'yicha dalillarni kuzata turib, uning yangi xususiyatlarini ajratish, bilimlarni yangi axborotlar bilan boyitish didaktik izlanishlarda kumilyasiya deb yuritiladi. Kumilyasiya hodisasi-o'rganilgan bilim, faoliyat usullarini kengaytirish bilimlarni dastlabki o'rganishdan tortib, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida muttasil davom ettirilsa, ta'limni ijodiy o'tkazishning samaradorligi shunchalik oshadi. Kuzatilgan darslarda kumilyativ xarakterdagi o'quv topshiriqlari tashkil etilmadi.

2.2.Boshlang'ich sinflarda Davlat ta'lim standarti talablari asosida ona tili o'qitishni ijodiy tashkil etish

Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil, shu bilan birga, o'ta murakkab tarkibiy qismidir. Avvalo, boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'limning dastlabki bo'g'inidir.U o'ziga yarasha dastur, darslik, o'quv qo'llanmalariga ega.Boshlang'ich sinflarda alohida tayyorgarlikdan o'tgan o'qituvchilar ishlaydi. Boshlang'ich ta'lim muammolarini tahlil va tadqiq ishlari bilan mutaxassis olimlar shug'ullanadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim ma'lum o'quv yillaridan tashkil topadi.Bular boshlang'ich ta'limning mustaqil bo'g'in ekanligidan dalolat beradi.Qolaversa, boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining murakkab bo'g'ini hisoblanadi.Bola o'qish, yozish, hisoblash texnikasini ilk bor boshlang'ich sinfda egallaydi. U to'rt o'quv yili mobaynida hozirgi zamon fani, ishlab chiqarish texnologiyasining umumiy asoslarini o'zlashtiradi va fikrlashni o'rganadi. Bolalar boshlang'ich sinflarda o'qitilish orqali ta'lim jarayonida faol ishtirok etish yo'llari, vositalarini egallaydi. Ular mustaqil fikrlash, hayotda o'z o'rnini egallash sirlaridan voqif bo'ladi, 5-9-sinflarda ona tili o'quv predmetining to'liq kursini o'zlashtirishga tayyorgarlik ko'rishadi. Bular boshlang'ich ta'limning o'ta murakkab ekanligi bilan izohlanadi.

Yuqoridagilardan ayon bo'ladiki, umuman maktablarni, bizning sharoitda boshlang'ich sinflarni isloh qilishning ikkinchi sifat bosqichida boshlang'ich ta'lim mohiyatini o'rganishni davom ettirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining real o'quv imkoniyatlarini pedagogik va metodik jihatdan atroflicha o'rganish, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish, bolalarda mustaqil fikrlash layoqatlarini tarbiyalash, bolaga o'z fikrlarini ona tilida ravon, tushunarli bayon qilish vositalari, usullarini tadqiq qilish kabilar ona tili metodikasi sohasida ham eng zaruriy va dolzarb masalalar sanaladi. Ana shularni inobatga olib, monografiyaning ushbu faslida Davlat ta'lim standartlarining metodik qimmatini hamda boshlang'ich sinf ona tili darsliklari, shuningdek, ularning ona tili metodikasi uchun ahamiyati, Davlat ta'lim standartlari bilan ta'limni ijodiy tashkil etish masalalarini uzviy aloqadorligini muhokama qilamiz.

Davlat ta'lim standart (DTS)larining metodik mohiyati respublikamiz hududidagi maktablarda bolalarning o'quv predmetlarini o'zlashtirishini

rivojlangan mamlakatlardagi bolalarning ta'lim mazmunini o'zlashtirishlariga taqqoslab o'rganish, ta'lim sohasidagi yutuq va kamchiliklarni sarhisob qilish, ta'lim jarayonining real amal qilishida zaif joylarini aniqlash imkoniyatlarini oshiradi. "Davlat ta'lim standarti,-deb yozilgan umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga oid to'plamda,-ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullari, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan muassasalarda (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturi, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi" [31, 6].

1. Davlat ta'lim standart (DTS)lari mazmuni jamiyat taraqqiyoti darajasida ta'limning amal qilishini tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishni ma'lum izchillikka solish uchun asosiy orientir sanaladi. Ularning pedagogik mohiyati O.Roziqovning qator maqolalarida, M.Mahmudovning [59; 62] risolalarida keng tahlil qilingan.

M.Mahmudovning "Ta'lim etaloni" deb nomlangan risolasida Davlat ta'lim standarti va ta'lim etaloni o'zaro chog'ishtirib o'rganilgan. Muallifning yozishicha, ta'lim standarti va etaloni o'zaro daxldor ikkita hodisa [59, 7].

"Standart" (inglizcha-standart, ruscha-norma, o'zbekcha-qolip) "qoida", "namuna" ma'nolarini anglatadi. Har bir o'quv predmetining o'zigagina xos standartlari mavjud. Masalan, ona tilida "atoqli otlar", sodda va qo'shma gaplar, matematikada ko'paytirish va bo'lish, tipik masalalar ta'lim standartlaridir" [59, 7].

Kishilarning ismi, familiyasi, otasining ismi, daryo, tog', ko'l, cho'l, qishloq, ko'cha, shahar nomlari, hayvonlarga atab qo'yilgan otlar, gazeta, jurnal, kitob, ilmiy va badiiy asarlarning yozilishi bitta standart-"bosh harf bilan yoziladi" degan qoida bo'yicha boshqarilib o'zlashtiriladi.

Davlat ta'lim standartlari tanlanadi. Ularni tanlash va tartibga tushirish manbai fan, ishlab chiqarish, texnika va texnologiyadir. Standartlar o'qituvchiga nisbatan mo'ljal (orientir) vazifasini, o'quvchiga nisbatan o'rganish obyekti vazifasini o'taydi. "Shu tufayli,-deb yozadi M.Mahmudov,-DTSlarni "subyekt-

obyekt” tizimida qaraymiz” [59, 7]. Ta’lim etaloni keng hodisa bo’lib, u ta’limni loyihalash, tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish vositasidir.

Har bir ta’lim standarti o’zigagina xos mazmunga ega. Masalan, shaxs va narsalarning nomini bildirgan so’zlar ot deyiladi. Bu ta’rif ot-so’z turkumiga oid so’zlarni boshqa kategoriyalardan farq qilish uchun ishlatiladi. Shu bilan birga ta’lim standartlari nisbatan pedagogik hodisa bo’lib, ular fan, ishlab chiqarish, fikrlash shakllari, texnika va texnologiyada sezilarli o’zgarishlar bo’lgunga qadar o’z turg’unligini saqlaydi. Ta’lim standartlari tanlanadi. Ularni ko’paytirish va, aksincha, ozaytirish, sanash mumkin.

2. Boshlang’ich sinflarda ona tilidan ta’lim standartlari. Boshlang’ich sinflarda ona tili o’qitishning hozirgi metodikasi va unga oid pedagogik amaliyot bolalar xotirasiga mo’ljallanganligi hech kimga sir emas. O’quvchi o’rganilgan ta’rif, qoida, aniqliklarni yodlab olib, ularni misollar bilan tushuntira olsa, ta’limdan ko’zlangan maqsad amalga oshdi deb o’ylashadi. Xotiraga mo’ljallangan an’anaviy ta’lim tizimi o’quvchining ongi, tafakkuri, uning ichki olami-qiziqishi, emotsiya, motivlariga yetarli ta’sir qila olmaydi. Natijada bolaning faolligi, mustaqilligi, tashabbuskorligi, binobarin, ijodkorligiga yetarli e’tibor qilinmaydi. O’quvchining an’anaviy ta’lim sharoitidagi maqomi-bolaning ta’lim jarayoni obyektiga ekanligi to’g’risidagi qarashlar o’qituvchini ham, o’quvchini ham qabul qilingan qoidalar-rigorizmlar chegarasidan chiqarmasdan iskanjada saqlab turadi.

O’quvchini ta’lim jarayoni subyektiga funksiyasida ishtirok ettirish, til ta’limining amaliy yo’nalishini kuchaytirish, ta’limga interfaol usullarni olib kirish ona tili ta’limi mazmunini o’quv topshiriqlari, muammolari, testlar tizimi shakliga keltirish, ona tilidan o’zlashtiriladigan obyektlarni-nutq tovushi, so’z, turli sintaktik qurilmalarni faol fikrlash vositasiga aylantirish orqali ona tili ta’limining ijodiy yo’nalishini kuchaytirish mumkin. Ona tili ta’limining ijodiy yo’nalishini amalga oshirishda ta’lim standartlari o’lchov vazifasini bajaradi.

Boshlang’ich sinflarda ona tili sohasida ta’lim mazmuni quyidagilarni o’z ichiga oladi:

-nutq tovushlari: unli va undosh, jarangli va jarangsiz tovushlar;

-bo’g’in: urg’uli va urg’usiz bo’g’inlar, ochiq va yopiq bo’g’inlar, aytilgan yoki berilgan so’zlarni fonetik tahlil qilish;

-so’z: so’z ma’nolari, ma’nodosh so’zlar, qarama-qarshi ma’noli so’zlar;

-o'zakdosh so'z, o'zak, negiz, qo'shimcha, old qo'shimcha, so'z turkumlari tahlili, so'z yasovchi qo'shimchalar, narsa nomi qo'shimchasi, narsaning rang-tusini bildirgan so'zlar, narsaning miqdori va son-sanog'ini bildirgan so'zlar, ish-harakatni ifodalovchi so'zlar;

-ko'makchi va bog'lovchilar;

-gap: darak ma'nosini ifodalovchi gaplar, so'roq ma'nosini ifodalovchi gaplar, his-hayajon ifodalovchi gaplar;

-tinish belgilari: nuqta, so'roq, undov, vergul;

-matn; matnning tuzilishi, mavzu, asosiy fikr, sarlavha, reja, so'z boshi, taqqoslash, dialog, monolog, bayon, insho, og'zaki va yozma ijodiyot, xat, xabar, tabriknoma.

Boshlang'ich sinflarda ona tili mazmuni to'rt yo'nalishda o'zlashtiriladi.

Birinchi yo'nalish. Ona tilidan elementar bilimlarni o'rganish. O'quvchilar nutq tovushi va harf to'g'risidagi dastlabki bilimlarni, unli va undosh tovush, jarangli va jarangsiz undosh, bo'g'in, ochiq va yopiq bo'g'in, bo'g'in ko'chirish qoidalariga oid axborotlarni o'rganadi. Shuningdek, so'z va uning ma'nolarini farqlashga oid, so'z ma'nolari va so'roqlariga ko'ra guruhlash-ot, sifat, son, fe'l, bog'lovchi so'zlar haqida ilk qarashlarni bilib oladi. Tildan elementar bilimlarni o'rganish gap tushunchasi bilan aloqadorlikda butun boshlang'ich ta'lim muddatida davom ettiriladi. Bolalar darak, so'roq, his-hayajon gaplarni, ularda ishlatiladigan tinish belgilari to'g'risidagi axborotlarni, nutq va uning turli ko'rinishlari-xat, xabar, tabriknoma, maqola, taklifnoma xususidagi ma'lumotlarni o'zlashtiradi.

Ikkinchi yo'nalish. Ona tilidan ilk ilmiy axborotlarni o'zlashtirish nutq ko'nikmalarini shakllantirish bilan uzviy aloqadorlikda davom ettiriladi. Ona tilida aytish va aytganlarni yozma nutq vositasida qayd etish, gapirish va eshitish, fikrni nutq vositasida ro'yobga chiqarish ehtiyoji o'quvchilarda turli nutq ko'nikmalarini shakllantirish, ularni malaka darajasiga ko'tarish imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi. Boshlang'ich sinflarning ona tili o'quv predmeti bo'yicha hosil qilinadigan ko'nikma-malakalar quyidagi guruhlarga ajratib tahlil qilinadi.

1. Fonematik eshitish malakalari-nutq tovushini so'z tarkibida to'g'ri ijro etish va eshitish, nutq tovushlariga ko'ra so'z ma'nolarini farqlash, urg'uli

vaurg'usiz bo'g'inlarni talaffuz qilish, so'zlarni bo'g'inlar ketma-ketligida aytish va eshitish layoqatlari.

2. Grafik malakalar-har bir nutq tovushini o'ziga oid harf va belgilar bilan yozish demak.

3.Orfografik malakalar-so'z va uning tarkibiy qismlari o'zak va negizni, yasovchi, turlovchi, tuslovchi qo'shimchalarni ajratib va qo'shib yoziladigan so'z, so'z birikmalarini, atoqli otlarni orfografik qoidalar doirasida yozish.

4. Uslubiy malakalar-so'z va uning tarkibiy qismlarini matnda ortiqcha takrorlamasdan, gap tarkibida gap bo'laklari tartibiga rioya qilib, matnni shakllantirish.

5. Tinish belgilarini yozma nutqda to'g'ri ishlatish malakalari-boshlang'ich sinflarning dasturlari hamda Davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan nuqta (.), so'roq (?), undov(!), vergul (,) kabi belgilarni matnda to'g'ri ishlatish va matnni jonlantirish, ya'ni o'qish paytida ularga rioya qilib faoliyatni amalga oshirish.

6. Prosodik malakalar-nutq tempi, ovozning past- balandligi, diksiya, ohangga rioya qilib o'qish, gapirish, aytish malakalari.

Uchinchi yo'nalish.Ijodiy faoliyat tajribasini rivojlantirish.Bola ona tili vositasida ham ijtimoiy tajribani, ham ijtimoiy tajribani o'zlashtirish vositalarini egallaydi.Shu hodisani inobatga olib, didaktikada keyingi yillarda yangi bir yo'nalish asoslandi. Bu yo'nalishga ko'ra ma'lumot va ta'lim mazmunining manbai sifatida ijtimoiy tajriba tahlil qilina boshlandi.

M.Mahmudovning quyidagi fikri ona tili ta'limida o'quvchilar ijodkorligini o'rganish uchun dastur vositasi bo'la oladi: "O'z faoliyati natijasini o'zgalar faoliyati mahsuliga qo'shib ko'rsatish yo'li bilan yoshlar turli axborotlarni ham, an'anaviy faoliyat usullarini ham, ijod qilish yo'llarini ham, narsa-hodisalarni emosional baholash mezonlarini ham o'zlashtirib olishadi. Aftidan, bolalar ijodkorligining ilk qarashlarini xuddi ana shu hodisadan-o'z faoliyati natijasini o'zgalar faoliyati natijasiga qo'shib ko'rsatish jarayonidan izlamoq kerak" [62, 22-23].

Bilim, malaka va faoliyat usullariga munosabat bildirish, bilish jarayoni natijasini jarayonning o'zidan ajratib tahlil qilish, o'rganilgan va tahlil qilingan

narsa-hodisalarni baholash, o'rganilgan va endi o'rganiladigan hodisalar o'rtasidagi chegarani anglash, o'zlashtirish va hali bilib olinmagan narsalarning farqiga borish o'quvchilarni ta'lim sharoitidagi ijodkorlikka yetaklaydi. "Ijod, o'z navbatida, kompleks hodisa bo'lib, u fikrlashning taraqqiyot darajasiga ham, tafakkurning evristik-topqirlik layoqatiga ham, avlodlar faoliyatidagi vorislikka bog'liq. Xalqimiz-azal-azaldan ijodkor xalq. Unda progressiv hodisalarni qabul qilish va "hazm qilish" layoqati yuqori darajada takomillashgan. Qalovini topsang, qor ham yonadi deganlaridek, o'zbekning har bir sog'lom farzandini ijodkor Shaxs qilib yetishtirish mumkin" [61, 23].

To'rtinchi yo'nalish. Tilga, til orqali til ijodkori-xalqqa munosabatni shakllantirish. Bu yo'nalish boshlang'ich sinf ona tili ta'limida yetakchi bo'lib, bolalarda til bilimlari asosida dunyoqarashni, tabiat va jamiyat hodisalariga munosabatlarni tarbiyalashni taqozo qiladi. "Munosabat keng ma'noda dunyoqarash demakdir. Tabiat, jamiyat, ong hodisalariga oid bilimlarni egallash bolalarda shu hodisalariga munosabatlarni tarbiyalaydi" [62, 23]. Bolada tilga, uning turli unsurlariga oid qarashlarni rivojlantirish-bu, avvalo, tafakkur, ongli faoliyatning ishidir. Bolada tilga munosabat shakllangan sari, u o'zining va o'zgalar nutqining sir-asrorini egallay boradi, o'zini, o'zligini, o'z xalqini, Vatanini anglay boshlaydi. Aftidan, buyuk mutafakkir shoir A.Navoiy "tilga e'tiborsiz, elga ixtiyorsiz" deganda tilning tarbiyalovchanlik xususiyatini ko'zda tutgandir.

Yuqorida izohlangan yo'nalishlarga rioya qilib, boshlang'ich sinf ona tili ta'limi mazmunini ijodiy o'zlashtirish jarayonini boshqarish mumkin. Buning uchun boshlang'ich sinf ona tili predmeti mazmunini tahlil qilishga ehtiyoj tug'iladi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning ikkinchi bosqichi sifat bosqichi bo'lib, bunda maqsad uzluksiz ta'limning dastlabki pog'onalaridan biri bo'lgan boshlang'ich ta'limda ham yangi zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga tadbiq etishni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, boshlang'ich sinflarning ona tili darsliklari xususida ham fikr yuritsak. Darhaqiqat, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili o'qitish borasida batamom yangi vazifalarni qo'yadi. Shunday ekan, ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish, ular ongida ma'naviy-ma'rifiy "inqilob" hosil

qilishga erishish yo'llarini izlab topish va amalga tadbqiq etish sohasida jiddiyroq o'ylab ko'rish vaqti keldi. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarini tahlil qilishda prof. A.G'ulomov va H.Ne'matovlar tomonidan tavsiya qilingan mashqlar tasnifiga tayanamiz.¹

1.Qayta xotiralash tipidagi mashqlar.

2.Qisman izlanuvchanlikka oid mashqlar.

3.Ijodiy mashqlar.

1-4-sinf ona tili darsliklarida berilgan mashqlarni o'rganish jarayonida quyidagilar aniqlandi². 1-sinf ona tili darsligida berilgan 175 ta mashqdan 92 tasi (52%) qayta xotiralash mashq tipiga, 45 tasi (35%) qisman izlanuvchanlik, 21 tasini (12%) ijodiy mashqlar tashkil etadi; 2-sinf ona tili darsligida berilgan 298 ta mashqning 202 tasi (67%) qayta xotiralash, 66 tasi (22%) qisman ijodiy, 30 tasi (18%)ni ijodiy mashqlar; 3-sinf ona tili darsligida berilgan 319 mashqdan 232 tasi (72%) qayta xotiralash, 62 tasi (19%) qisman ijodiy, 25 tasi (7%)ni ijodiy mashqlar; 4-sinf ona tili darsligida berilgan 470 mashqdan 353 tasi (75%) qayta xotiralash, 93 tasi (19%) qisman ijodiy, 24 tasi (5%)ni ijodiy mashqlar tashkil qiladi. Bundan ko'rinadiki, boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida ijodiy xarakterdagi o'quv topshiriqlari nihoyatda kam ekanligi ma'lum bo'ladi.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limini ijodiy tashkil etishda o'quvchi faoliyati:

-bilimlarni amaliyotda qo'llay olish;

-olingan bilimlarga tayangan holda xulosalar chiqarish;

-tildan egallangan bilimlarni umumlashtirish;

-tafakkurga mo'ljallangan topshiriqlardan o'quv faoliyatida foydalana olish;

-o'rganilgan bilimni turli vaziyatlar (matn ichidan talab qilingan so'z yoki so'z birikmasini topish, matnda berilgan so'zlarni ma'nodoshlari bilan almashtirish, so'zlarni talab qilingan guruhlariga ajratib yozish)ga tatbiq eta bilish.

Boshlang'ich sinf ona tili predmeti funksiyalari tarkibini bilmasdan ona tili predmeti va ona tili darsliklari tushunchalarini chegaralamasdan turib, ona tili

¹ G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. –T.: O'qituvchi, 1995. -125 b.

²Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarini tahlil qilishda 2003-2004-yillarda nashr qilingan darsliklardan foydalandik.

ta'limini ijodiy tashkil etish to'g'risida fikr yuritish amri maholdir. Muhokamani o'zbek tilshunosligi va ona tili predmeti, ona tili predmeti va ona tili darsliklari tushunchalarini o'zaro taqqoslab tavsiflashdan boshlaymiz.

O'zbek tilidan ma'lumot mazmuni ona tili predmetida mujassamlashgan bo'lib, u kishilarning o'zaro aloqalashuvi uchun zarur bilimlarni qamrab olishga mo'ljallangan. Binobarin, ona tili predmeti hozirgi o'zbek tilshunosligi fanining ilmiy yutuqlari, tilning hozirgi taraqqiyoti xususidagi tasavvurlar, tilni sinxronik o'rganish natijalari asosida ishlab chiqiladi. Lekin bu "hozirgi o'zbek tilshunosligi" va "ona tili predmeti" bir xil ekan degan xulosaga olib kelmasligi kerak. O'zbek tilshunosligi fani va maktablarda o'qitiladigan ona tili predmeti bir-biridan quyidagicha farq qiladi.

Tilshunoslik fani va ona tili o'quv predmeti turli vazifalarni bajaradi. Tilshunoslikda kishilar (mutaxassis olimlar) kashf etgan bilimlarning barchasi saqlanadi. Shu tufayli uni xazinaga o'xshatish mumkin. Ona tili predmetida yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash uchun eng zarur bilimlar ko'zda tutiladi. Shu sababli uni sarf-xarajatlar sifatida qarash mumkin. Ma'lum bo'ladiki, tilshunoslik va ona tili predmeti jamiyatda bajaradigan ishiga ko'ra o'zaro farq qiladi. Shu bilan birga ona tili predmetida bolalarning yosh xususiyatlari, real o'quv imkoniyatlari hisobga olinadi. Tilshunoslik esa jamiyat a'zolarining barchasi uchun xizmat qiladi. Bundan ayon bo'ladiki, ona tili predmetida ta'limning lingvodidaktik, psixologik, gigienik, fiziologik tomonlari ko'zda tutiladi.

Til to'g'risidagi fan mazmun va hajm jihatdan o'quv predmetiga nisbatan keng. Unda kishilarning o'zaro aloqalashuvi uchun zaruriy bilimlar ham, til taraqqiyotini belgilab beruvchi omillar ham o'z aksini topadi. Shu jihatdan qaraganda fan ijtimoiy institut sanaladi. U fanning barcha sohalarini, shu sohalar bo'yicha ilmiy ish olib boruvchi olimlar faoliyatini o'z ichiga oladi.

Hozirgi o'zbek tilshunosligining umumiy asoslariga pedagogik ishlov berish orqali ma'lumot, ta'lim mazmuni shakllantiriladi. Ona tilidan ma'lumot mazmunini bolalarbop shaklga olib kelish uchun ilg'or o'qituvchilar, usulshunos olimlar, didaktlar faoliyat ko'rsatishadi. Maktab o'qituvchilari ma'lumot, ta'lim mazmunini o'quv materiallari shaklida bolalarga etkazishadi. O'quv materiallarini o'zlashtirishda bolalarning o'zlari ham faol ishtirok etadi.

Ta'lim sharoitida til va nutqni o'rgatish (o'qituvchi faoliyati) va o'rganish (o'quvchi faoliyati) obyekti sifatida qatnashadigan sohalar majmuini ona tili predmeti sifatida tushunamiz. Tilning fonetikasi, leksikasi, grammatikasiga doir bilimlar, ularga oid nutq ko'nikmalari, shakllantiriladigan ijodiy faoliyat tajribasi, til va nutqqa doir munosabatlar tizimi "ona tili predmeti" tushunchasi kontekstida qaraladi.

Tarkibiy qismlari ta'lim maqsadi-nutq o'stirish talabiga ko'ra o'zaro bog'langan, ona tilining grammatik qurilishi bo'yicha elementar bilim berishga mo'ljallangan 1-4-sinflarda o'rganiladigan nutq ko'nikmalarini (orfografik, grafik, orfoepik, prosodik, uslubiy, punktuasion) rivojlantirishga qaratilgan o'zbek tilshunosligi ishlanmasiga boshlang'ich sinf ona tili predmeti deyiladi.

Boshlang'ich sinf ona tili o'quv predmeti oldiga qo'yiladigan vazifalar:

- bolalarda nutq tovushi, bo'g'in, urg'u, so'z, so'z birikmasi, so'zning tarkibi, so'z turkumi, gap haqidagi tasavvurlarni rivojlantirish, ularni ijro etish, o'qish, yozish, eshitishga oid malakalarni rivojlantirish;

- o'quvchilar nutqini turli so'zlar, iboralar, qurilmalar bilan boyitish yo'llari va ularni nutq tuzishga o'rgatish;

- o'quvchilarda aqliy, estetik, etik tasavvurlarni, til va nutqqa munosabatni tarkib toptirish, ularda ilmiy dunyoqarashni tarbiyalash;

- boshlang'ich sinfni tamomlovchi o'quvchilarni o'qish-o'rganishni bundan so'ng davom ettira olishga tayyorlashdan iborat.

Keltirilgan vazifalar tilning fonetik, leksik, grammatik jihatlarini o'rganish zaminida amalga oshiriladi. Maktabda tilning har bir tomonini o'zlashtirishda uch narsaga: maktab dasturlari va ta'lim standartlari chegarasida elementar nazariy bilimlarni o'zlashtirish, o'rganilgan bilimlar bilan bog'liq ravishda nutq malakalarini shakllantirish, o'quvchilarda ijodiy layoqatlarni o'stirishga alohida ahamiyat beriladi.

Tilning fonetikasi uning birdan-bir aniq tomoni hisoblanadi. Masalan, "b" tovushi faqat va faqat "b" tovushini bildiradi. Fonetika, fonema, bo'g'in, urg'u kabi lingvistik kategoriyalar abstrakt tafakkur mahsuli bo'lsa-da, nutq tovushi (b), so'zning bir qismi (bo-bo), so'z bo'g'inlaridan birining kuchli aytilishi (ish-chi-man) bizning ongimizga bog'liq bo'lmagan hodisadir.

Fonetikani o'zlashtirish o'quvchilarning tafakkurini o'stirish bilan bevosita bog'langan. Buning uchun har bir nutq tovushi so'z tarkibida o'rgatiladi. Natijada o'quvchi so'zning fizik tomoni hisoblangan nutq tovushlarini so'z tarkibida farqlash ko'nikmalarini hosil qiladi. Ma'lum nutq tovushi bo'yicha so'z ma'nolarining o'zgarishi ustida ishlash (o'n-en-in-un; il-ich-iz-ip-ish), so'zlarni tovush va bo'g'inlariga ko'ra tahlil qilish, berilgan harf va aytilgan tovush ishtirokida so'z, so'z birikmasi, gap tuzish bolalarda nutq qura olish layoqatlarini o'stiradi.

Nutq tovushlari, ularning o'zaro farqlari ustida mashq qilish natijasida o'quvchilarda ham lingvistik tushuncha shakllanadi, ham fonematik eshitish (nutq tovushini so'z tarkibida to'g'ri anglash, fahmlash, eshitish, aytish) rivojlanadi. Lingvistik tushunchalar to'g'risida tasavvur hosil qilish, fonematik eshitishni shakllantirish o'quvchilarning til sezgirligini tarbiyalaydi. Shunday qilib, fonetika oid bilimlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarda orfoepik, grafik, orfografik va sh.k. malakalar hosil qilinadi.

Maktab ona tili predmetida leksika materiallari boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatila boshlanadi. O'quvchilar so'zlarning ma'nolari, yaqin ma'noli so'zlar, qarama-qarshi ma'noli so'zlar va shu kabi leksik hodisalarni o'rganish yo'li bilan har bir so'zni o'z o'rnida ishlatish uslubini ham o'rganishadi.

Yuqoridagilarga o'xshab, morfologiya va sintaksis elementlariga bog'langan holda bolalarda orfografik, orfoepik, uslubiy, punktuasion, prosodik malakalar tarkib toptiriladi.

Ona tili tarkibiga ko'ra murakkab o'quv predmeti bo'lib, u ikki yarus (qavat)dan iborat: uning ustki yarusini tilning fonetika, leksika, grammatikasiga oid elementar nazariy bilimlar, ikkinchi yarusni orfoepik, grafik, orfografik, uslubiy, punktuasion, prosodik malakalar tashkil etadi. Tildan o'rganiladigan bilimlar, hosil qilinadigan malakalar bolalar nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. Monografiyaning keyingi bobida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari ona tili predmetining tarkibiy qismlariga aloqadorlikda bayon qilinadi.

Ona tili predmeti bola o'qish va yozishni o'rgangandan boshlab, toki umumiy o'rta ma'lumot olgunga qadar davom etadi. Ona tili predmetida ko'zda tutilgan muammolar, ularning hajm va ko'lam jihatidan takomillashib borishi

hisobga olinib, o'zbek tili darsliklari tuziladi. Binobarin, ona tili predmeti to'g'risidagi ilmiy tasavvurlar darslik tuzish uchun asos hisoblanadi.

Darsliklarda u yoki bu sinf o'quvchilarining tayyorgarlik jarayoni psixofiziologik xususiyatlari inobatga olinadi. Har bir darslik aynan olingan sinf (masalan, 1-sinf yoki 4-sinf) o'quvchilarining yosh xususiyatlari va tayyorgarlik darajasiga mo'ljallab tuziladi. Bunda ona tili o'qitishning vorislik tamoyiliga qat'iy rioya qilinadi. Binobarin, "ona tili predmeti" tushunchasi mohiyatiga, "o'zbek tili darsligi" tushunchasi esa voqelikka doir kategoriyadir. Zotan, ona tili predmeti o'zbek tili darsliklari vositasida o'rgatish va o'zlashtirish hodisasiga aylanadi.

Keltirilgan aniqlikdan ko'rinadiki, ona tili o'zbek tilshunosligi fanining barcha nuqtai nazarlari sintezida yaratilgan o'quv predmeti bo'lib, u bola shaxsining taraqqiyot bosqichlari bilan uzviy bog'langan. Shu tufayli monografiyaning keyingi boblarida ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish muammosi ijodiy ta'lim vositalarini aniqlash, tanlangan vositalar tizimini ona tili o'qitish jarayoniga tatbiq etish bolalarning o'quv-biluv faoliyati xususiyatlari asosida bayon qilinadi.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish-bu o'quvchilarning tashabbuskorligi, mustaqilligiga asoslangan, tafakkuriga mo'ljallanib, mustaqil fikrlash va ongini rivojlantirishga yo'nalgan, natijasi shaxsiy faoliyat mahsuli sifatida shakllanadigan, istiqbolda barkamol inson shaxsini rivojlantiradigan ona tili ta'limining alohida nuqtai nazaridir.

Hozirgi pedagogik amaliyotda va ilg'or o'qituvchilar faoliyatida boshlang'ich sinf ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish elementlari mavjud. Fanning vazifasi pedagogik amaliyotning yutuq va kamchiliklarini aniqlash, kamchiliklarni bartaraf etish yo'li bilan boshlang'ich sinf ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish amaliyotini yangi sifat bosqichiga ko'tarishdan iborat.

Maktablarda ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish amaliyotini tahlil qilish bu sohaning qator zaif tomonlarini belgilash imkoniyatini beradi. Hozirgi paytda boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish sohasida qator qiyinchiliklar bor. Bular:

- ona tili ta'limini ijodiy tashkil etishning maqsad, vazifalarini atroflicha anglamaslik;

-ona tili ta'limini bolalar ijodkorligiga mo'ljallab loyihalash texnologiyasini bilmaslik;

-ona tili ta'limi mazmunini ta'lim jarayoni xususiyatlariga moslashtira olmaslik;

-ijodiy ta'lim natijasini obyektiv qayd etish, baholash me'yorlarining ona tili o'qitish tajribasida asoslanmaganligi bilan izohlanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida uchraydigan kamchiliklarni bartaraf etish oxir-oqibatda ona tili ta'limining samaradorligini oshirishga, ona tilini o'zlashtirishning ijodiy yo'nalishini kuchaytirishga olib keladi.

Vosita keng ma'noda inson o'zi bilan mehnat predmeti o'rtasiga qo'yadigan moddiy va moddiylashgan narsalardir. Duradgor o'zi bilan mehnat predmeti-xontaxta, stul shakliga keltiriladigan taxtalar o'rtasiga arra, elim kabi moddiy narsalarni, taxtani arralash tajribasi, o'zida buyumlar yasash bo'yicha hosil qilingan moddiylashgan narsalar-bilimlarni qo'yib, mehnat predmetini iste'mol tovar shakliga keltirganidek, o'qituvchi o'zi bilan o'quv material o'rtasiga moddiy va moddiylashgan narsalarni qo'yib ta'limdan ko'zlangan maqsadni amalga oshiradi, ma'lum natijaga erishadi. O'qituvchi uchun ta'lim vositalari nihoyatda ko'p: o'quv topshiriqlari, muammolari, lingvistik mashq uchun tuzilgan topshiriqlar, testlar ana shunday vositalar sirasiga kiradi.

Ushbu bobda boshlang'ich sinf ona tili ta'limini ijodiy tashkil etishni ko'zda tutib, biluv topshiriqlarini tahlil qilamiz. Biluv topshiriqlarini to'liq tasavvur etish uchun ularni uch jihatdan–bolalarning o'quv-biluv faoliyati va biluv topshiriqlarining tiplari (1), ona tili o'quv predmeti tarkibiga ko'ra biluv topshiriqlari (2), biluv topshiriqlari tizimini loyihalash (3) biluv topshiriqlarini ta'limga tatbiq qilishning

shart-sharoiti (4) nuqtai nazaridan tavsiflaymiz.

2.3.Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini faollashtirishga mo'ljallangan topshiriq turlari

Bola maktabga kelgunga qadar barcha nutq tovushlarini talaffuz etishni o'rganib olgan, uning nutqi asosiy so'z turkumlariga oid so'zlar bilan boyigan,

soʻzdan nutq tuzish amaliyotini egallagan boʻladi. Boshlangʻich sinf ona tili taʼlimi bola maktabga kelguncha hosil qilgan nutq tayyorgarligi ustiga quriladi. Ona tili taʼlimi oldingi bobda qayd qilinganidek, ikki yarusli oʻquv predmetidir. Oʻquvchilar tilning fonetika, leksika, grammatikasiga doir juda siqiq bilimlarni egallashadi. Oʻquv yillari osha bolalarning ona tiliga oid nazariy bilimlari takomillashib boradi. Ona tili taʼlimining bunday takomillashib borishi oʻquv dasturlari bilan belgilangan. Boshlangʻich sinf ona tili dasturlari konsentrik tuzilgan. Shu tamoyilga rioya qilib, ona tili taʼlimi juda oddiy bilimlardan yanada murakkab bilimlarga oʻtish yoʻsinida tashkil etiladi. Masalan, 1-sinfda otga oid bilimlar “Shaxs va narsalarni bildirgan soʻzlar” rukni bilan oʻrganilsa [102, 52-64], keyingi sinflarda “ot” atamasi qoʻllanib, otga oid bilimlar mazmun va hajmiga koʻra yanada kengaytiriladi [42; 89; 99].

Maktabda bola tilning uch tomoni-fonetik, leksik, grammatik tomonlarini, ularga bogʻlangan holda orfoepik, grafik, orfografik, uslubiy, prosodik, punktuasion malakalarni oʻzlashtirishadi.

Tilning fonetik jihatini oʻzlashtirish oʻquvchilar tafakkurini oʻstirish bilan aloqadorlikda tashkil etish uchun har bir nutq tovushi soʻz tarkibida oʻrgatiladi. Nutq tovushlarini soʻz tarkibida oʻrgatish talabi ona tili taʼlimini ijodiy tashkil etish imkoniyatini ham oshiradi. Masalan, shunday topshiriq berilgan boʻlsin: har ikkala boʻgʻinida “i” harfi yoziladigan toʻrtta soʻz topib yozing. Bunday ijodiy ishlar bolalarda izlanish layoqatlarini tarbiyalaydi, imlo savodxonligini oshiradi, bolalar talaffuzini tartibga tushiradi. Topshiriqni bajarishda bola darslikdan oʻz tezaurusidan soʻzlar izlaydi. Bu oʻquvchi faoliyatida izlanish layoqatini oʻstiradi, bola nutqida soʻzlarning faollashuviga sabab boʻladi.

Nutq tovushini soʻz tarkibida oʻrgatish bolalarning fonematik eshitishini taraqqiy ettirish bilan birga juda koʻp soʻzlarning maʼnolarini tushunishlarini ham taʼminlaydi. Shu tufayli nutq tovushlarining soʻz maʼnolarini ajratishga oid jihatlarini tahlil qilishga oid biluv topshiriqlaridan foydalanish ehtiyoji tugʻiladi. Haqiqatan ham, xush (yaxshi) va hush (aql, hush), xol (yuzdagi qora nuqta) va hol (ahvol), xurma (idish) va hurma (itning vovullashi), shox (daraxt shoxi, sigir shoxi) va shoh (podshoh), xatlab (xatga olingan, yozib olingan) va hatlab (sakrash), xam (bukilgan) va ham (bogʻlovchi) kabi juda koʻp soʻzlarning maʼnolarini chogʻishtirish yoʻli bilan aniqlash mumkin. “X” va “H” harfli soʻzlarning

yuqoridagi xususiyatlari asosida taqqoslashga oid quyidagicha topshiriqdan foydalaniladi.

Topshiriq. Ikki ustunda “x” va “h” harfidan boshlab yozilgan soʻzlar berilgan. Ularni oʻzaro taqqoslab, har bir soʻzning maʼnosini tushuntirishga tayyorlaning.

1-ustun	2-ustun
xush	hush
xol	hol
xurma	hurma
shox	shoh
xatlab	hatlab
xam	ham

Tilimizda bir unli tovushga (bor, ber, bar, bur, boʻr, bir), shuningdek, bir undosh tovushga koʻra (gʻoʻr, toʻr, zoʻr, koʻr, qoʻr, toʻr) maʼnolari farq qiladigan soʻzlar koʻp topiladi. Nutq tovushlarining shu xususiyatlarini inobatga olib, biluv topshiriqlari tuzib, taʼlimga tatbiq etsa, oʻqitishning samaradorligi yuqori boʻladi.

Topshiriq. Oʻn ikkita soʻz berilgan. Oʻylang-chi, shu soʻzlarni qanday qilib oltitadan ikki guruhga ajratib yozsa boʻladi?

gʻoʻr, bor, ber, bar, joʻr, zoʻr, koʻr, bur, bir, toʻr, boʻr.

Keltirilgan topshiriqni aʼlo baholarga oʻqiydigan 4-sinf oʻquvchilariga yuqoridagi shaklda tavsiya qilsa boʻladi. Ammo bunday topshiriqni sinfning barcha oʻquvchilari bajara olmaydi. Ana shuni hisobga olib, topshiriqni quyidagicha nutqiy koʻrsatmalar (NK) vositasida murakkabdan osonga qarab borish yoʻli bilan yaxshi, oʻrta, oʻrtadan past oʻzlashtiradigan oʻquvchilarga moslashtirsa boʻladi.

1-nutqiy koʻrsatma: oʻn ikkita soʻz berilgan. Ular bir unli tovushga, turli undosh tovushlarga koʻra farq qiladigan ikkita guruhga ajratib yozish mumkin. Oʻylangchi, topshiriqni qanday bajarsa boʻladi.

2-nutqiy koʻrsatma: oʻn ikkita soʻz berilgan. Ularni bir unli tovushga koʻra, bir undosh va bir unliga koʻra farq qiladigan oltitadan soʻzni guruhlariga ajratib yozing.

3-nutqiy ko'rsatma: O'n ikkita so'z berilgan. Ularni namunadagidek ikki guruhga ajratib yozing.

1-qator: bor, . . . , . . . , . . . , . . . , . . . , . . .

2-qator: g'o'r, . . . , . . . , . . . , . . . , . . . , . . .

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida so'z ma'nolari ustida ishlash alohida ahamiyatga ega. So'z ma'nolari ustida ishlash ona tili o'quv predmetining barcha tarkibiy qismlari bilan aloqadorlikda tashkil etiladi. Binobarin, so'z ma'nolarini izohlashda uning tovush tomoniga, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish hamda to'g'ri yozish, o'quvchilar nutqini o'stirish ishlari kompleks amalga oshiriladi.

So'z ikki yoki undan ortiq fonemaning birikuvidan iborat. Fonema jonli nutqda turli so'z va morfemalarni farq qilish hamda ajratishning eng kichik birligidir. So'z tarkibida bironta fonema o'zgarishi bilan shu so'zning ma'nosi o'zgaradi yoki shu so'z ma'no bildirmaydigan tovushlar yig'indisidan iborat bo'lib qoladi. Ma'lum izchillikdagi nutq tovushlaridan tarkib topish so'zning navbatdagi xususiyatidir. Shu bilan birga so'z umumlashgan ma'no anglatadi. Masalan, paxta deganda, ekiladigan urug', ko'karib turgan o'simlik, chigiti ajratilgan momiqkabilarni anglash mumkin. So'z kontekstda konkret, kontekstdan tashqari umumlashgan ma'no anglatadi. Masalan, "Quruvchilar yangi shahar yaratdi" (bunyod etmoq ma'nosida), "Rassom ishchi portretini yaratdi" (chizmoq ma'nosida), "Abdulla Qodiriy Kumush obrazini yaratdi" (yozmoq ma'nosida). "Yaratmoq" fe'li kontekstda qurmoq, chizmoq, yozmoq ma'nolarini anglatadi. So'z ma'nolarini nutq tarkibida o'rgatish yo'li bilan bolalar so'z, so'z birikmalarini to'g'ri qo'llash malakalarini ham egallab olishadi.

Hozirgi boshlang'ich sinf darsliklarida so'z ma'nolarini ijodiy o'rgatishga mo'ljallangan mashqlar berish odat tusini olib bormoqda. Masalan, 1-sinf Ona tili darsligida [102] so'zlar "shaxs, narsa, harakat, belgi, miqdor ma'nolarini bildiradi" degan metodik aniqlik keltirilgach, 91-mashq berilgan [102, 48].

So'zlarni o'qing. Bu so'zlar qanday ma'noni bildiradi?

Qizil, ko'za, o'n, soch, Toshkent, Qarshi, Gulsara, kuldi, katta, etti, bodom, ochildi, shirin, uxladi, ishchi, Zebiniso, Marg'ilon, besh.

Mashqni bajarish uchun quyidagi jadval keltirilgan.

6-jadval

Kim?	Nima ?	Qaer ?	Nima qildi?	Qand ay?	Nech a?

Jadval bo'yicha o'quvchilar bajargan ijodiy ish quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

7-jadval

Kim?	Nima ?	Qaer ?	Nima qildi?	Qand ay?	Nech a?
Gulsa ra	ko'za	Tosh kent	kuldi	qizil	o'n
ishch i	soch	Qars hi	ochil di	katta	etti
Zebin iso	bodo m	Marg 'ilon	uxlad i	shirin	besht

Berilgan so'zlarni ma'nolari bo'yicha guruhlariga ajratib yozish 1-sinf o'quvchilari uchun ijodiy ish sanaladi. Topshiriqni bajarishda o'quvchilar so'roqlar va so'z ma'nolari tushunchalariga asoslanib faoliyat ko'rsatishadi. Keltirilgan ijodiy ishini davom ettirish ham mumkin. Bunda bolalar bajaradigan ijodiy ish quyidagi talablar bo'yicha davom ettiriladi: har bir so'roqqa o'zingiz istagancha so'z topib yozing; uyda jadvalning har bir bo'limiga bittadan so'z topib yozing; o'zingiz yozgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Biluv topshiriqlari vositasida qarama-qarshi, o'zaro yaqin ma'noli so'zlar bo'yicha ham bilishga oid topshiriqlar tuzib, ta'limga tatbiq qilish bolalarda izlanish layoqatlarini o'stiradi. Bunda ot so'z turkumiga oid so'zlar beriladi. Bolalar predmetning belgisi, harakatini bildirgan so'zlarni izlab topishadi, gaplar tuzishadi.

Topshiriq. Ikkinchi ustundagi so'zlarning ma'nolarini mos belgi va harakatiga oid so'zlar topib yozing.

1-ustun

.....

2-ustun

daraxt

3-ustun

.....

.....	bino	
.....	lola	
.....	shamol	

Uchala ustundagi soʻzlardan foydalanib, quyidagi gaplarni tuzish osonlashadi. Tuzilgan gaplar tahlilidan narsani bildirgan soʻzlardan oldin belgi, undan keyin harakatni bildirgan soʻzlarning kelishini anglab olishadi: Kattakon daraxt gulladi. Koʻrkam bino qurildi. Qip-qizil lola ochildi. YOqimli shamol esdi.

Soʻzlarni maʼnolariga koʻra guruhlariga ajratishga oid biluv topshiriqlari oʻquvchilar diqqatini soʻz maʼnolariga tortishning faol usuli hisoblanadi. SHunday soʻzlar berilgan boʻlsin: quyosh, maysa, chiqdi, bolalar, koʻm-koʻk, quvnoq, koʻkardi, oʻynadi, qizarib.

Oʻylangchi, shu soʻzlarni qanday qilib uch guruhga ajratib yozish mumkin. Bolalar topshiriqni bajargach, shu soʻzlar ustida ishni davom ettirish mumkin. Buning uchun yana bir biluv topshirigʻi tashkil etiladi.

Topshiriq. Soʻzlardan foydalanib, quyosh, bolalar, maysalar toʻgʻrisida uchta gap tuzing.

Oʻquvchilar: “Quyosh qizarib chiqdi. Koʻm-koʻk maysalar koʻkardi. Quvnoq bolalar oʻynadi” kabi gaplarni tuzishadi.

Soʻz maʼnolarini ajratishda taqqoslash usuli bilan bajariladigan biluv topshiriqlari alohida ahamiyatga ega. Shunday topshiriqlar berilgan boʻlsin.

Topshiriq. Oʻqing. (issiq, qisqa, katta, uzoq, kichik, yaqin, uzun, sovuq). Shu soʻzlarni qanday qilib toʻrt juft qarama-qarshi maʼnoli soʻzlarga ajratish mumkin?

Bolalar qavs ichida berilgan soʻzlarning birinchisi (issiq)ni tanlab, unga qarama-qarshi maʼnoli soʻz (sovuq)ni, ikkinchi soʻz (qisqa)ni tanlab, unga qarama-qarshi maʼnoli soʻz (uzun)ni, uchinchi soʻz (katta)ni tanlab, unga qarama-qarshi maʼnoli soʻz (kichik)ni, toʻrtinchi soʻz (uzoq)ni ajratib, unga qarama-qarshi maʼnoli soʻz (yaqin)ni tanlashadi. Shu yoʻl bilan toʻrtta zid maʼnoli soʻzlar juftligi hosil qilinadi.

Topshiriq. Dumaloq, kuldi, yurdi, keldi soʻzlariga zid maʼnoli soʻzlar topib yozing.

Topshiriqni bajarib, dumaloq-uzun, kuldi-yigʻladi, yurdi-toʻxtadi, keldi-ketdi juftliklari hosil qilinadi. Bu koʻrinishdagi biluv topshiriqlari oʻquvchilarning soʻz maʼnolarini anglashlarini taʼminlaydi, bolalarda soʻzga munosabatni tarbiyalaydi.

Ona tilidan o'rganiladigan bilim, hosil qilinadigan malakalar o'quvchilarda nutqni, nutq madaniyatini taraqqiy ettirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf ona tili predmeti amaliy o'quv predmeti bo'lganligi tufayli situativ nutq tuzish malakalarini rivojlantirishni taqozo qiladi.

Adabiyotlarda ona tilidan shakllantiriladigan malakalar ikki guruhga ajratib o'rganiladi [73, 45]. Jismoniy malakalar. Nutq organlari, qo'l mushaklari harakatiga mansub malakalar jismoniy malaka sifatida qaraladi. Bular o'z navbatida ikki guruhga bo'lib o'rganiladi: og'zaki nutqqa doir malakalar. Aytish, eshitish, tinglash, talaffuz qilish bo'yicha hosil qilinadigan jismoniy malakalar; yozma nutqqa oid malakalar-bular uch guruhga bo'linadi: yozish malakalari; aqliy malakalar-fahmlash, bilish, tushunishga oid malakalar, baholay olish malakalari. Binobarin, yozish, aqlni ishlatish, tushunish malakalari o'zaro uzviy bog'langan; esga tushirish malakalari jismoniy malakalar bilan aloqador bo'lib, tildagi an'analariga rioya qilish malakalari kiradi. Haqiqatan ham o'zbekning salomlashishi milliy an'analimiz talablariga binoan tuzilishi va u boshqa millat nutqidagi an'analardan farq qiladi.

Nutq o'stirishning pirovard maqsadi o'quvchilarda bog'li nutq malakalarini takomillashtirishdir. Kishi ko'pincha o'z fikrlari, qarashlari, mulohazalarini bog'li nutq shaklida beradi. Chunki ma'lum bir situativ hodisaning mazmuni gap doirasiga sig'maydi. Shundan bog'li nutqqa ehtiyoj tug'iladi.

Mantiqan o'zaro bog'langan, bir-birini to'ldiradigan, izohlaydigan, biri ikkinchisini taqozo qiladigan xatboshiga bo'linadigan, monolog ko'rinishidagi nutqni bog'li nutq deb tushunamiz.

Bola tuzadigan bog'li matn ham grammatik tomondan (nutqning lug'at tarkibi, so'z ma'nodoshlari, gapda so'zlarning bog'liqligi, gaplar o'rtasidagi ketma-ketlik), ham mantiqiy tomondan (mavzuning asosiy g'oyasini ochish, fikrni mantiqiy izchillikda bayon qilish) hisobga olinishi zarur. Nutq maqsadga muvofiq so'z tanlash, tanlangan so'z yordamida tahlil qilinayotgan sohaning turli belgilarini ifodalayotgan gap tuzish, gaplarni mantiqan bog'lash, gap va xatboshilardan yaxlit matn hosil qilish bog'li nutqning asosiy shartlaridir.

Joylarda o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish, o'quvchilarning yozma ishlarini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, bolalar boshlang'ich sinfda gap tuzish va o'z fikrini mantiqiy izchillikda bayon qilishga ancha qiynalishadi. Gap va

bog'li nutq ustida ishlash qandaydir ma'lum vaqtdagina emas, balki butun o'quv yili mobaynida o'tkaziladigan davomli mashq bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari sintaksis elementlari bilan ta'limning ilk kunlaridanoq tanisha boshlaydi. Bolalar dastlab 1-sinfda nutq birligi-gap to'g'risida, gapning bosh harfdan boshlanishi va uning oxiriga nuqta qo'yilishi to'g'risida ilk ma'lumot olishadi. Keyingi sinflarda gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, ularning ohangi, gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari bilan tanishadi. Gap bo'yicha o'tkaziladigan darslarda, bolalar, gap so'zlardan tuzilishi, unda kim yoki nima haqida aytilganini, shuningdek, gapda nimalar xususida fikr yuritilganligini, gapda so'zlarning o'zaro qanday bog'langanligi va bu bog'lanishni so'roqlar yordamida aniqlash mumkinligini o'zlashtirishadi. Bola o'z fikrini gap vositasida ro'yobga chiqarish yo'li bilan tilning grammatik qurilishini amaliy o'rganadi. U gap tuzish malakasini egallagan sari bog'li nutq tuzishni ham bilib oladi.

Bog'li nutq o'stirishning ham o'ziga xos usullari bor. Mazmun jihatidan ajratilgan gap, xatboshilarni mantiqan qo'shib, yiriklashtirish, grammatik vazifali hikoya, matn yaratish, ish qog'ozlari, bayon, insho yozdirish yo'llari bilan bog'li nutq o'stiriladi. Gap va bog'li nutq ustida ishlash usullariga rioya qilib, biluv topshiriqlari ta'limga tatbiq qilinadi. Namuna tariqasida mazmunan ajratilgan sodda gaplarni moslari bilan birlashtirib, yirik nutq birligiga aylantirishga oid biluv topshirig'ini keltiramiz.

Topshiriq. Chap tomondagi gaplarga o'ng tomondagi gaplardan mosini qo'shib, qayta gap tuzing.

Qo'ng'iroq chalindi	Gullar ochildi
Chol qo'lini ko'tardi	Yiqilib tushdi
Bola yugurdi	Duo qildi
Bahor keldi	Dars boshlandi

Bunday biluv topshirig'ini bajarishda 2-sinf o'quvchilari gaplarni mazmun jihatidan birlashtirib, yanada yirikroq nutq birligiga aylantiradi: *Qo'ng'iroq chalindi va dars boshlandi. Chol qo'llarini ko'tarib, duo qildi. Bola yugurdi va yiqilib tushdi. Bahor kelib, gullar ochildi.* Ushbu sodda gaplarning

mazmuni va ularni o'zaro birlashtirish usuliga rioya qilib, biluv topshirig'i bajariladi.

Prosodik malakalarni shakllantirishga oid biluv topshiriqlari. Ona tilini o'qitish jarayonida bolalarning prosodik malakalari ham tarkib toptiriladi. Prosodik malakalarni hosil qilishda ona tilining imkoniyatlari nihoyatda ko'p: fonetika materiallari bo'yicha unli va undosh, jarangli va jarangsiz, undosh tovushlar, bo'g'in tushunchasi bilan aloqadorlikda urg'u, so'z urg'usi, gapda logik urg'u, darak, so'roq, undash ohangi ustida ishlash jarayonlarida prosodik malakalar rivojlantiriladi. Tilimizda birinchi bo'g'inga urg'u tushadigan so'zlar ham ancha topiladi (hamma, barcha), shuningdek, oxirgi bo'g'inga urg'u tushmaydigan (kimdir, nimadir) so'zlar ham mavjud. Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilarida prosodik malakalarni rivojlantirishga mo'ljallab tuzilgan biluv topshiriqlaridan namunalar keltiramiz.

1. "I" unlisi talaffuz qilinganda, og'iz biroz ochiladi. Tilning uchi pastki jag'larga kelib tegadi. Ichingizda beshgacha sanab, "i" tovushini talaffuz eting. Tinglangchi, "i" tovushi yoqimli eshitilarmikan¹.

2. "E" unlisi talaffuz qilinganda, og'iz "i" tovushini aytgandagidan kattaroq ochiladi. Oldin "e" tovushini, keyin "i" tovushini, oxirida "ie", "ei" birikmalarini to'rt martadan ayting.

3. "A" tovushini talaffuz etganda, og'iz "e" tovushini aytgandagidan kattaroq ochiladi. O'ng qo'lingizdagi besh barmog'ingizni bukkancha sanab, a unlisini cho'zib talaffuz qiling. "Ae", "ea", "ai", "ia" birikmalarini uch-to'rt martadan ayting.

4. "O" unlisini talaffuz etganda, og'iz keng ochiladi. "Oa", "ao", "ea", "ae", "ai", "ia" birikmalarini uch martadan ayting.

5. "U" unlisini talaffuz etganda, og'iz o'rtacha ochiladi. "Uo", "ou", "ua", "au", "ui", "iu", "ue", "eu" bir necha martadan ayting.

6. "O'" unlisini talaffuz qilganda og'iz "u" unlisini talaffuz qilgancha nisbatan kengroq ochiladi. "O'u", "uo'", "uo", "ou", "o'a", "ao'", "o'i", "io'", "o'e", "eo'" birikmalarini qayta-qayta ayting.

¹ Shu xildagi o'quv topshiriqlarini tuzish va ularni ta'limga tatbiq etish metodikasini metodist olim K.Jo'rayev ishlab chiqqan. Qarang: K.Jo'rayev. Ifodali o'qish. –T.: O'qituvchi, 1972.

Keltirilgan topshiriqlarni 2-3-sinf darsliklariga qo'shimcha sifatida ishlatib bo'ladi. Ularning ijrosi ko'p vaqtni olmaydi. Shuningdek, bunday topshiriqlar bolalarda ona tiliga qiziqishni oshiradi, unli tovushlar, ularning artikulyasiyasini ongli egallashga olib keladi. Bunday topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning fonematik eshitishini, diksiyasini taraqqiy ettiradi. Eng asosiysi bu xildagi biluv topshiriqlari ayrim talaffuzi va imlosi qiyin so'zlarni propedevtik-oldindan o'zlashtirishga shart-sharoit yaratadi. Shunday so'zlarga misollar keltiramiz: matbaa, maosh, san`at, mudofaa, Saida, itoat, bois, jamoat, doir, oila, muallim, shoir, matbuot, muammo, muomala, shoir, Saodat, Ismoil, dialog, pauza, istiora, teatr.

Metodik adabiyotlarda til o'qitishda ikki narsa: bilimlar va malakalar hisobga olinadi. Ammo bolada kishilar bilan aloqa qilish yo'li bilan yoshligidan shakllana boshlagan uchinchi narsa-nutq qobiliyati e'tibordan chetda qoladi. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish uchun quyidagi prosodik o'quv topshiriqlaridan foydalansa bo'ladi.

1. Bir necha kun ikkita o'rtog'ingizning nutqini kuzatib yuring. Ular nutqining o'xshash va farqli tomonlarini aniqlang. O'rtoqlaringizdan qay biri tez, baland ovoz bilan gapiradi. O'rtoqlaringizdan kim past ovoz bilan sekin, ammo burro-burro gapiradi.

2. O'rtoqlaringizdan birining nutqini o'z o'rtoqlari bilan suhbatlashayotganda, o'qituvchining savollariga javob berayotganda kuzating. Shu o'rtog'ingizning nutqida do'stlari bilan erkin suhbatlashayotganda, o'qituvchi savollariga javob berayotgan holatda qanday o'zgarishlar bo'lganini aytib berishga tayyorlaning.

3. Talaffuz paytida sinf xonasidan turib hovlida o'ynayotgan o'rtoqlaringizning ovozi tinglang. Eshitilgan ovoz kimning ovozi ekanligini ajratib (bilib) olishga harakat qiling.

4. Kimlarni ovozidan taniysiz?

5. Sinfda eng yaxshi gapiradigan o'rtog'ingiz va o'qituvchining nutqiga taqlid qilib gapiring.

6. O'zbek tilida gapiradigan rus, qozoq, tatar o'rtog'ingiz bormi? Shu o'rtoqlaringiz nutq tovushlaridan qay birini noto'g'ri talaffuz qiladi? Ularga qanday yordam bersa bo'ladi?

7. Televizordan bolalar uchun beriladigan ko'rsatuvlarni kuzatib boring. Personajlarning (bo'ri, quyon, echki, echki bolasi) nutqidagi farqlarni aytib berishga, ularning nutqini takrorlashga tayyorlaning.

8. O'qituvchining nutqini kuzating. O'qituvchi mavzuni tushuntirish paytida qanday gapiradi. O'qituvchingiz so'roq gaplarni qanday ohangda aytadi?

Yuqorida o'quvchilarning kuzatuvchanligini oshirishga qaratilgan biluv topshiriqlaridan namunalar keltirildi. Ularning ba'zilaridan sinfda, ba'zilaridan uy topshirig'i sifatida foydalanish mumkin.

Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib, bu bosqichda bolalarning dunyoqarashi, didi, olamni anglashga bo'lgan bilish imkoniyatlari taraqqiy etib, nutq ko'nikmasi shakllanadi. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish boshlang'ich ta'lim oldida turgan eng muhim dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Keyingi yillarda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar o'qitish jarayoniga bir qator kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni qo'ymoqda. Bunday vazifalar sirasiga o'quvchilarda mustaqillikni shaxsiy sifat shaklida shakllantirish, o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatish kabilar kiradi. Shunday ekan, biz, o'quvchini qanday qilib mustaqil fikrlashga o'rgatamiz?

Mustaqil fikrlash inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki erkin fikr yuritish nafaqat o'quv predmetini o'zlashtirishga, ayni paytda o'quvchi tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Mustaqil fikrlash—bu inson sezgi organlari va aqliy faoliyatining birligi o'laroq, mustaqil ravishda tahlil qilish, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish, taqqoslash, aniqlashtirish, mavhumlashtirish kabi fikriy operatsiyalardan foydalangan holda amalga oshiriladigan aqliy faoliyatdir¹. Ma'lumki, o'quvchilarda mustaqillikni shakllantirishning bir qancha vositalari mavjud. Ona tili o'qitish jarayonida o'quvchilarda mustaqil fikrlashni quyidagi usullar asosida takomillashtirish mumkin:

- turli didaktik o'yinlarni tashkil qilish;
- rasm asosida matn yaratish;
- voqea-hodisalarga munosabat bildirish;

¹Sh.Nurullayeva. Mustaqil fikrlash mezonlari. //Xalq ta'limi jurnali. 2001. —34-39-b.

- so'z ma'nolari ustida ishlash orqali.

Yuqorida sanab o'tilgan usullarning har biri o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirishda o'z o'rnini va mavqei bor.

Turli didaktik o'yinlarni tashkil etish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Har bir boshlang'ich sinf o'quvchisida ko'rgan, bilgan narsalar haqida tasavvur bo'ladi. Shuning uchun bu yoshdagi o'quvchilar bilan tashkil qilinadigan didaktik o'yinlar ham bevosita ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog'liq bo'lishi talab etiladi. Didaktik o'yinlar sirasiga «Davom et», «Baliq tutish o'yini», «Sirli sandiq», «MMM» (maslahat, muhokama, munozara) va hk. Har bir didaktik o'yinning o'z maqsadi va vazifasi bor. Masalan, qaysidir didaktik o'yin o'quvchining topqirlik layoqatini o'stirsa, yana biri mantiqiy fikrlashini, qaysisidir nutqini rivojlantiradi.

Didaktik o'yinlardan o'qish va ona tili darslarida ko'proq foydalanilsa, o'quvchilarning bilish faolligi oshadi. Masalan, 3-sinf o'qish darsligining¹ 110-betida berilgan «Sayyoralar» matni yuzasidan «Sirli sandiq» o'yinini tashkil etish mumkin.

O'qituvchi qog'ozdan yasalgan sandiq ichiga mavzu bilan bog'liq bo'lgan savollarni joylashtiradi. Savollar quyidagi ko'rinishda tayyorlanishi mumkin:

1-tarqatma. Quyosh sistemasiga kiradigan sayyoralar nomini ayting.

2-tarqatma. Kometa haqida so'zlab bering.

3-tarqatma. Meteorlar haqida so'zlab bering.

4-tarqatma. Eng yorug' yulduzga tavsif bering.

5-tarqatma. Sayyoralarning nomini aytib bering.

6-tarqatma. Er atrofidagi sayyoralarni sanang va ularga tavsif bering.

Ushbu savollarga o'quvchilar egallagan bilimiga tayangan holda javob beradi. Ikkinchidan, o'quvchining tabiat darsidan olgan bilimi ham qayta xotirlanadi. Bu bilan o'qituvchi fanlararo bog'liqlik, ya'ni integratsiyalashtirilgan ta'lim tizimini ham o'z faoliyatida qo'llaydi. Boshlang'ich sinflarda bunday o'yinlarning tashkil etilishi o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va tasavvur doirasini kengaytiradi hamda mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantiradi.

¹ Umarova M., Hakimova Sh. O'qish kitobi. –Toshkent, Ijod dunyosi. 2002. 240 b.

Rasm asosida matn yaratish.Buboshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida keng qo'llanadigan usul bo'lib, unda syujetli rasm asosida o'quvchilarga kichik matn tuzdiriladi. Odatda, o'qituvchilar ertak, fasllar, kishilar mehnati bilan bog'liq rasmlar asosida matn tuzdiradi. Bunday usulda ishlash sinf o'quvchilarining deyarli bir xil matn tuzish yoki yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchidan ko'chirish kabi salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. O'qituvchi shunday holatlarning oldini olish maqsadida sinf o'quvchilarini kichik guruhlariga ajratib, har bir guruhga alohida rasmlar tarqatib matn tuzdirish ham mumkin.

Rasmlar asosida ishlashning ikkinchi usuli ham mavjud. Bunda o'qituvchi o'quvchilarni qobiliyatiga yoki bilimiga qarab ham differensial guruhga ajratishi mumkin. O'quvchilarni bilimiga qarab guruhga ajratganda ularga beriladigan topshiriqlar ham bir-biridan farq qiladi. Bundan tashqari, o'quvchilar tuzgan matn yuzasidan tafakkurni o'stiruvchi topshiriqlar ham berish mumkin. Masalan, bahor fasli tasvirlangan rasm asosida «Erta bahor» mavzusi yuzasidan matn tuzdirilgan bo'lsa, unda o'quvchilar diqqati quyidagi topshiriqlarga jalb qilinadi:

1. «Sumalak» so'zini izohlab bering.
2. Matndan harakat bildiruvchi so'zlarni ajratib yozing.
3. Matndan belgi bildiruvchi so'zlarni ajratib yozing va hk.

Rasmlar asosida ishlaganda bu tipdagi savol-topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi.

Voqea-hodisalarga munosabat bildirish.O'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishda eng samarador usullardan biri sanaladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida voqea-hodisalarga munosabat bildirish malakasi hali shakllanmaganligi uchun bu usuldan foydalanish o'qituvchilarga bir oz bo'lsa-da, qiyinchilik tug'diradi. Har bir voqea-hodisaga munosabat bildirishda o'quvchining o'zi ijodiy va mustaqil fikr yuritadi. Ma'lum bir voqeaga o'zining ijobiy yoki salbiy munosabatini bildiradi. Bu jarayonda o'quvchining so'z boyligi alohida ahamiyat kasb etadi. Agar o'quvchining nutqida ma'nodosh, shakldosh, uyadosh so'zlar ko'p bo'lsa, voqeani tasvirlash jarayoni rang-barang bo'lib, ta'sirchanlik oshadi. Mazkur usulning vazifasi ham o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga xizmat qilish.

Ushbu usul uchun tanlanadigan mavzular bevosita o'quvchilarning o'zlari ishtirok etgan, o'z ko'zlari bilan ko'rgan shu bilan birga, ular tasavvur qila

oladigan voqea-hodisalar bo'lishi lozim. Masalan, «Ta'tilda», «Mening maktabim», «Oila», «Do'stlikda hikmat ko'p», «1 sentyabr –Mustaqillik kuni», «1 oktabr –Ustoz va murabbiylar kuni» va hk.

So'z ma'nolari ustida ishlash. Boshlang'ich sinflarda so'z ma'nolari ustida ishlash zaruriy hodisa bo'lib, unda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning dunyoqarashi rivojlanadi hamda ular nutqida mavjud bo'lgan noaniq so'zlarga aniqlik kiritiladi.

Boshlang'ich sinf darsliklarida ko'plab shu yoshdagi o'quvchilar tushunishi qiyin bo'lgan so'zlar uchraydi. Masalan, o'jar, vodi, chanoq, palak, tarang («Alifbe»), daho, nahor, navqiron dilbandi (1-sinf ona tili darsligi), zarang, egat, vahm, po'lat qanotlar, nurli peshona (2-sinf), samoviy, nigoh tashlab, og'och, dovon, sohil, suruv, bepoyon, jimit (4-sinf). Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, boshlang'ich sinflarda so'z ma'nolari ustida ishlash dolzarb muammo ekanligi ayonlashadi.

So'z ma'nolari ustida ishlashda o'qituvchilar har bir so'zning izohiga alohida e'tibor berishlari lozim. Ko'p ma'noli va bir ma'noli so'zlarning ma'nosini tushuntirganda mazkur so'zning nutqda qo'llanish holatiga mos gaplar bilan tushuntirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida ijodiylik, o'quvchini mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirishga keng ahamiyat berilgan. Mashqlar uchun tanlangan matnlar ham o'qituvchidan yuksak bilim va mahorat talab qiladi. 4-sinf ona tili darsligi (Mualliflar: R.Ikromova va boshqalar.)da berilgan 100-mashqqa e'tibor qaratsak: «Mazkur mashqda qo'sh undoshlar va ularning qo'llanishiga oid so'zlar berilgan». Berilgan so'zlar ichida **«mashshoq va mashoq»** juftligi ham mavjud. O'qituvchi yuqorida keltirilgan so'zlarning imlosi bilan birga ularning ma'nosini ham izohlab berishi zarur. Ushbu so'zlarning ma'nosini izohlab ko'rsatishi uchun o'qituvchida etarli bilim bo'lishi lozim. Bunday mashqlar o'qituvchidan «Izohli lug'at»lar bilan ishlashni talab etadi. Demak, **«mashshoq»** deyilganda cholg'uvchi, sozanda tushunilsa, **«mashoq»** bug'doy o'rim-yig'imidan so'ng erga to'kilgan boshhoqlar tushuniladi. Mana shunday o'quv topshiriqlarini bajarish uchun o'qituvchidan puxta bilim va mahorat talab etiladi. Boshlang'ich sinf darsliklarida bunday tipdagi mashqlarni istagancha topish mumkin.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida foydalanishga mo'ljallangan ijodiy topshiriqlar

1-sinf

1-topshiriq

Quyida berilgan so'zlarning ma'nolarini izohlang.

Sur`at-surat, ta`na-tana, she`r-sher, sa`va-sava, da`vo-davo.

2-topshiriq

Berilgan so'zlar ichidan uy hayvonlarining nomini ajratib yozing.

Qo'y, it, yo'lbars, sigir, tulki, maymun, ayiq, buzoq, echki, sirtlon, bo'ri, sher, chiyabo'ri, ot.

3-topshiriq

Alifbodagi 4, 7, 13, 18, 21, 24, 27-harflarning bosh hamda kichik shakllarini yozing va shu harflarga oid uchtdan so'z ayting.

4-topshiriq

“O'qish” darsligida berilgan “Ibn Sino haqida rivoyat” matnidan avval kim?, keyin nima qildi? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni ajratib yozing.

5-topshiriq

Ustunlarda berilgan so'zlarga mosini tanlab yozinng.

Tikuvchi	ishlaydi
O'quvchi	bilim manbai
Ot	suzadi
Qush	kuylaydi
Xonanda	kishnaydi
Baliq	uchadi
Kitob	o'qiydi
Ishchi	tikadi

6-topshiriq

Nima uchun Malika, Bobur, Zarif, Azim, Sanobar, Manzura, Dilshod, Muhammad, Asad kabi so'zlar bosh harf bilan yozilganligini izohlab bering.

7-topshiriq

Narsalarning shaklini bildiruvchi so'zlarni yozing.

Namuna: uzunchoq

8-topshiriq

Narsalarning ta`m, mazasini bildiruvchi so`zlardan o`nta yozing.

Namuna: nordon

9-topshiriq

Berilgan matnni davom ettiring.

Bahor.Bahorda hammayoq yam-yashil tusga kiradi. Kunlar isiy boshlaydi...

10-topshiriq

Berilgan gaplar oxiriga nima uchun nuqta, so`roq belgilari qo`yilganligiga izoh bering.

1.Mening bobomni bilasizmi?

2.Ular ovchilik bilan kun kechirar ekan.

Umumiy o`rta ta`lim maktablarida ona tili o`qitishdan maqsad tilga oid dastlabki tushunchalar bilan tanishtirish hamda o`quvchilarning og`zaki va yozma nutqini o`stirishdir. Negaki, o`quvchilarga til hodisalari yaxshi tushuntirilmasa, kelajakda ularning nutqiga, dunyoqarashiga ta`sir ko`rsatishi mumkin.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari so`z ma`nolari ustida ishlashga odatlanishi zarur.Chunki boshlang`ich sinf o`quvchilarining ongida barcha so`zlarning ma`nolari haqida tasavvur mavjud emas.Bundan tashqari, ularda abstrakt tafakkurga nisbatan ko`rgazmalilik ustunlik qiladi.O`qituvchining vazifasi o`quvchilarda ko`rgazmalilikka tayangan holda abstrakt tafakkurni shakllantirishdir.Bu ishni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirish uchun so`z ma`nolari ustida ishlash alohida ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

O'quvchilar og'zaki va yozma nutqida yo'l qo'ygan nutqiy xatolarni o'z vaqtida to'g'rilab borish zarur. O'quvchi yo'l qo'ygan xatosining to'g'ri variantini o'zlashtirsin, imkoni bo'lsa, xatoning kelib chiqish sababini tushunsin. Xatoni to'g'rilashning eng foydali usuli yo'l qo'ygan xatosini o'quvchining o'zi to'g'rilashi hisoblanadi. O'quvchi xatosini to'g'rilay olmasa, uni o'qituvchi to'g'rilaydi. Xato turiga qarab to'g'rilanadi: gap yoki so'z birikmasi qayta tuziladi, so'z boshqasi bilan almashtiriladi, zarur so'z qo'shiladi, ortiqchasi ustidan chiziladi.

Insho yoki inshoni tahlil qilish darsida xatolar ustida ishlash maqsadi uchun darsning ikkinchi qismi – 20-25 minuti ajratiladi. O'qituvchi o'quvchilar insho yoki inshoni qanday yozganlari haqida qisqa tushuncha berib, eng yaxshi yozilgan matnni o'qib beradi, mazmundagi, mavzuni yoritishdagi kamchiliklar, imloviy va nutqiy xatolar aniqlanadi. Yo'l qo'yilgan xatoni to'g'rilash yo'li tushuntiriladi. Shundan so'ng xato ustida birgalikda ishlanadi: o'qituvchi yo'l qo'yilgan xatoning bir turini to'g'rilash yuzasidan topshiriq beradi: «Noo'rin ishlatilgan so'zni boshqasi bilan almashtiring». Xatosi bor matnni o'qib yoki yozib beradi, o'quvchilar yo'l qo'yilgan xatoni topadilar, maqsadga muvofiq so'z bilan almashtirib, uni to'g'rilaydilar va tushuntiradilar.

Ayrim o'quvchilar yo'l qo'ygan individual xatolar darsdan tashqari vaqtda, qo'shimcha mashg'ulot jarayonida to'g'rilanadi. O'quvchi bilan individual suhbatda ham, sinfda jamoa bo'lib ishlash jarayonidagi kabi, bolalarning aqliy faolligiga, ya'ni u xatosi nimadaligini tushunibgina qolmay, balki uni to'g'rilashi va tushuntirishiga erishish muhimdir.

Grammatik mavzuni o'rganishda o'quvchilar yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatoning oldini olish uchun mazkur mavzu ularga qanday imkoniyatlar yaratishi tushuntiriladi. Masalan, «Olmosh» mavzusini o'rganganda, kishilik olmoshlarining takrorlangan so'zlar o'rnida qanday ishlatilishi o'quvchilarga misollar bilan tushuntirilsa, ular ham insho yoki insho yozishda shunga rioya qiladilar.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdagi muvaffaqiyati uch asosiy omilga bog'liq: birinchidan, so'zga e'tibor bilan munosabatda bo'lish, bolalarning ko'p mutolaa qilishi, atrofidagi kishilarning to'g'ri va ifodali nutqi, ya'ni nutqiy sharoit; ikkinchidan, bolalarning nutqiy tajribasi qanday tashkil etilishi; uchinchidan, nutq o'stirishda o'qituvchining til nazariyasiga, grammatikaga, leksikologiya va stilistika elementlariga asoslanish ko'nikmasiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1998.
2. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.: 1997. 5- jild.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» qonuni. T.: 1997.
4. Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti. Boshlang'ich ta'lim. 2006, 5- son.
5. Abdullayeva K. Nazarov K. Yo'ldosheva Sh. Savod o'rgatish darslari . T.: O'qituvchi.2006.
6. Gapparova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. Alifbe .(Savod .) ” T .: “O'qituvchi ”2009.
7. Safarova R. va boshqalar “Alifbe ” T ., 2010.
8. Gulomov M. Yozuv daftari. T., Ma'naviyat. 2010.
9. Safarova R. Va b. Savod o'rgatish. T.: Ma'naviyat. 2008.
10. G'afforova T. G'ulomova X. Eshturdiyeva G. 1- sinfda savod o'rgatish. T.: Sharq. 2011.
11. Qosimova K. Fuzailov S. Ne'matova A. Ona tili . 2- sinf uchun T.:
12. Cho'lpon. 2010.
13. Qosimova K. Ne'matova A. 2- sinfda ona tili darslari T.: Cho'lpon. 2012.
14. Fuzailov S., Xudoberganova M., Ona tili . 3- sinf uchun T.: O'qituvchi .2011.
15. Xudoyberganova M. Muxtorova M. 3- sinfda ona tili darslari. 3- sinf uchun T.: O'qituvchi .2012.
16. Ikromova R. Gulomova X. Yo'ldosheva Sh. Shodmonqulova D. Ona tili . 4- sinf uchun T.: O'qituvchi. 2010.
17. Gulomova X. Yo'ldosheva Sh.Shermatova U. 4- sinfda ona tili darslari. T.: O'qituvchi . 2009.
18. Matchonov S. va boshqalar 4- sinfga o'qish darlari , T., 2012.
19. Xudoberganova M. “ Insholar to'plami ” Toshkent. 2005.
20. Tolipov U., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. T.: Fan. 2009.
21. Yuldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari., T.: O'qituvchi. 2012.

Mundarija

I.	
KIRISH.....	
II.	ASOSIY
QISM.....	
1-bob.Insho yozish malakasi va uni shakllantirish usullari.....	
1.1. Insho yozishda xatolarning kelib chiqish sabablari va xatolar ustida ishlash.	
1.2.Insho mavzusi va uni yoritish uslubiyati.....	
1.3. Yozma va og'zaki insho turlari.....	
2-bob. O'quvchilarning fikrlash qobiliyatini faollashtirishda ijodiy ishlarni tashkil etish muammolari.....	
2.1.Boshlang'ich sinflarda ijodiy ishlarni tashkil etish orqali o'quvchilar fikrlash qobiliyatini faollashtirish.....	
2.2.Boshlang'ich sinf ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish vositalari.....	
2.3.Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini faollashtirishga mo'ljallangan topshiriq turlari.....	
III. XULOSA.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	